



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

VATAN DEB YONGANLAR SO'NMAGAY...

*Vatan deb yonganlar so'nmagay aslo,
Xalqim deb kuyganning boqiydir umri.
Tunda yulduz bo'lib taratar ziyo,
Tonglarni uyg'otar jannatini nuri.*

*Mayin shabbodada yuzingiz silab,
Ruhingiz poyiga jur'at to'shaydi.
So'nik dilingizga umid bag'ishlab,
Zafarlarga chorlar tug'ga o'xshaydi.*

*Vatan deb yonganning o'chmas chirog'i,
Nomi asralgusi to hayot mangu.
Sharaf-shon, duoning yo'qdir sanog'i,
To mashhar el ichra boqiy yashar u.*

*Hurlikka fidolar so'nmagay abad,
Jasorat izlari millat qarog'i,
"Biz ham..." deb qad tutar minglab azamat,
Ularning da'vati mardlik sabog'i.*

*Elim deb yonganlar quyosh – so'nmas nur,
Ufqqa bosh qo'yib, qaytadi sahar.
Ular mangulikka daxldor axir,
Ular boqiylikka etganlar safar.*

Vatan deb yonganlar so'nmagay aslo...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-iyunidan chiqarib boshlagan
www.mv-vatanparvar.uz

2026-YIL 24-iyul
№30 (3196)



MILLATLARARO TOTUVLIK — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI PARADIGMASI

“Hech shubhasiz, yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilmaxillik noyob ijtimoiy hodisa bo‘lib, bugun – Yangi O‘zbekiston sharoitida yangicha ma‘no-mazmun va an‘analarga ega bo‘lib borayotgani diqqatga sazovordir”.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning eng muhim yutuqlaridan biri millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatidir. Bugun millatlararo totuvlik oddiy siyosiy shior yoki huquqiy talab emas, balki barqaror taraqqiyot, fuqarolik birdamligi va ijtimoiy ishonchni ta‘minlovchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ko‘p millatli jamiyatimizda tinchlikni saqlash, inson qadrini ulug‘lash va har bir fuqaroning huquqlarini ta‘minlash mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, millatlararo totuvlik Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi paradigmasiga aylanib bormoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson qadri, tenglik va bag‘rikenglik tamoyillari ustuvorlik berilgani millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Mamlakatimizda har bir millat va elatning tili, madaniyati, urf-odatlarini va milliy an‘analari hurmat qilinishi qonun darajasida kafolatlandi. Bu esa fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirib, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirmoqda. Tabiiyki, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tenglik muhiti shakllanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona Vatan tuyg‘usi asosida yashab, mehnat qilmoqda. Ular davlat boshqaruvi, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat, tadbirkorlik, tibbiyot va boshqa sohalarida mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Bu jarayon turli millat vakillarining imkoniyatlari tengligini, mamlakat ravnaqi barcha uchun umumiy maqsad ekanini namoyon etadi. Millatlar o‘rtasidagi ana shunday ishonch muhiti ijtimoiy barqarorlikning eng muhim omili hisoblanadi.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi hamda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 157 ta milliy madaniy markaz ushbu sohada muhim institutsional vazifani bajarmoqda. Ularning tashabbusi bilan milliy madaniyat kunlari, do‘stlik festivallari, ma‘rifiy anjumanlar va yoshlar forumlari muntazam tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar turli millat vakillarining bir-birini yaqindan anglashiga, milliy madaniyatlarga hurmat ruhini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada millatlararo muloqot madaniyati tobora yuksalmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy ishonch yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot ham barqaror kechadi. O‘zaro ishonch mavjud bo‘lgan muhitda investitsiyalar ko‘payadi, tadbirkorlik rivojlanadi, mehnat unumdorligi oshadi va ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi.

Shu ma‘noda millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim shartidir. Tinchlik va hamjihatlik har qanday islohotning samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Millatlararo totuvlik bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining nafaqat ma‘naviy qadriyati, balki ijtimoiy ishonchning yangi paradigmasidir. U huquqiy tenglik, inson qadri, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va fuqarolik birdamligi kabi umuminsoniy tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ana shu qadriyatlar mustahkam bo‘lgan jamiyatdagina tinchlik, barqarorlik va yuksak taraqqiyotga erishish mumkin. Demak, millatlararo totuvlikni asrash va uni yanada mustahkamlash har bir fuqaroning vijdoniy burchi, mamlakat kelajagi va Uchinchi Renessansni barpo etishning muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy ishonchning muhim mezonini insonning o‘zini jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida his qilishidir. Agar inson o‘z huquqlari himoya qilinishiga, uning milliy qadriyatlarini hurmat qilinishiga ishoncha, u davlat va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi. Shu nuqtayi nazardan millatlararo totuvlik faqat etnik munosabatlar masalasi emas, balki fuqarolik birdamligini shakllantiruvchi strategik omil hisoblanadi. Iшонch mavjud bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, mas‘uliyat va tashabbuskorlik ham kuchayadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili ham millatlararo totuvlik g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyatda millat, til yoki diniy mansublik emas, avvalo insonning huquq va erkinliklari qadrlanadi. Bu yondashuv har bir fuqaroda Vatan taqdiri uchun mas‘uliyat, davlatga ishonch va jamiyat oldidagi burch hissini mustahkamlaydi, bu pirovardida ijtimoiy birdamlik mamlakat taraqqiyotining eng muhim resurslaridan biriga aylanadi.

Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati etnik bag‘rikenglik modelidan

fuqarolik birdamligi modeliga o‘tdi va bu yangi paradigma hisoblanadi. Ilgari millatlararo munosabatlar asosan turli millatlarning tinch-totuv yashashini ta‘minlash nuqtayi nazaridan baholangan bo‘lsa, bugungi kunda mazkur yondashuv mazmunan boyib, **“Yagona Vatan – umumiy taqdir – umumiy mas‘uliyat”** tamoyiliga asoslanmoqda. Endi turli millat vakillari faqat bir hududda yashovchi aholi emas, balki mamlakat taraqqiyoti uchun teng mas‘uliyatni his etuvchi fuqarolar hamjamiyati sifatida qaralmoqda. Bu esa millatlararo totuvlikni ijtimoiy ishonch, fuqarolik hamjihatligi va umummilliy manfaatlarining integrativ tizimiga aylantirmoqda. Shu ma‘noda Yangi O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning paradigmasi etnik xilmaxillikni saqlashdan uni milliy taraqqiyot resursiga aylantirish bosqichiga ko‘tarildi.

Yangi paradigmaning muhim xususiyati “Inson qadri uchun” tamoyilining millatlararo munosabatlarning asosiy qadriyat va tushunchasiga aylanganidir. Bugun millatidan, tilidan yoki diniy mansubligidan qat‘i nazar, har bir insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Bu yondashuv millatlararo totuvlikni faqat huquqiy tenglik emas, balki inson sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan ma‘naviy tizim sifatida shakllantirmoqda. Natijada millatidan qat‘i nazar, barcha fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi, ijtimoiy mas‘uliyati va umumiy taraqqiyotga daxldorlik hissi tobora mustahkamlanmoqda. Inson qadrini ustuvor qo‘yish millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi eng muhim falsafiy mezonga aylandi.

Ayni paytda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining markazida turgan “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadini belgilab berar ekan, u insonning millati, tili, dini, irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, uning huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Shu jihatdan qaraganda, inson qadrini ulug‘lash millatlararo totuvlikning eng muhim huquqiy va ma‘naviy poydevoridir. Agar har bir inson o‘zining hurmat qilinishiga ishoncha, u jamiyatning faol va mas‘uliyatli a‘zosi aylanadi. Bu esa millatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini mustahkamlaydi. Inson qadriga asoslangan siyosat barcha millat vakillarini yagona Vatan g‘oyasi atrofida birlashtiruvchi kuchga aylanmoqda.

Yana bir paradigmal xususiyat shundaki, millatlararo munosabatlar siyosatida ko‘p subyekтли ijtimoiy hamkorlik modeli shakllandi. Millatlararo totuvlikni ta‘minlash endi faqat davlat organlarining vazifasi emas. Bu jarayonda mahalla, oila, ta‘lim muassasalari, milliy madaniy markazlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar ham faol ishtirok etmoqda. Bunday yondashuv millatlararo munosabatlarni boshqarishning vertikal tizimidan gorizontal ijtimoiy sheriklik modeliga o‘tishni anglatadi. Natijada jamiyatning barcha qatlamlari tinchlik va hamjihatlikni saqlashda bevosita ishtirok etuvchi subyektlariga aylanmoqda. Bu esa ijtimoiy kapital va o‘zaro ishonch darajasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugun davlat idoralari, milliy madaniy markazlar, fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, diniy konfessiyalar va yoshlar tashkilotlari o‘zaro hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Masalan, turli millat vakillarini birlashtiruvchi milliy madaniy markazlar o‘zbek tili va davlat tiliga hurmatni mustahkamlash bilan birga har bir millatning tili, madaniyati va urf-odatlarini saqlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mahallalarda o‘tkazilayotgan **“Qo‘shnichilik bayrami”, “Do‘stlik festivali”, “Millatlar taomlari ko‘rgazmasi”** kabi tadbirlarda mahalla fuqarolar yig‘ini, milliy madaniy markazlar,

maktablar va yoshlar yetakchilari birgalikda ishtirok etib, ijtimoiy ishonch va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlamoqda. Bu esa millatlararo totuvlikni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy sheriklik asosida ta'minlashning amaliy namunasidir.

Ko'p subyektkli ijtimoiy hamkorlik modelining yana bir muhim amaliy misoli Do'stlik uylari faoliyatida davlat idoralari, milliy madaniy markazlar, olimlar, ijodkorlar va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorlikda ma'rifiy anjumanlar, til bayramlari, yoshlar forumlari va madaniy loyihalarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida millatlararo bag'rikenglikka bag'ishlangan davra suhbatlari, ilmiy konferensiyalar va talabalar klublari tashkil etilishida universitetlar, Yoshlar ishlari agentligi, mahalliy hokimliklar hamda jamoat tashkilotlari o'zaro hamkorlik qilmoqda. Masalan, Navro'z, Konstitutsiya kuni yoki Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan o'tkaziladigan umumxalq tadbirlarida turli millat va konfessiya vakillarining birgalikda ishtirok etishi ijtimoiy integratsiyani kuchaytirib, "Inson qadri uchun" tamoyilining amalga ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Shu tariqa ko'p subyektkli ijtimoiy hamkorlik modeli Yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va fuqarolik hamjihatligini ta'minlovchi samarali institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Navbatdagi paradigmal xususiyat millatlararo totuvlikning raqamli va global muhitga moslashgan yangi mazmun kasb etayotganidir. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida jamiyat barqarorligi nafaqat real ijtimoiy munosabatlarga, balki axborot makonidagi o'zaro hurmat va mas'uliyat madaniyatiga ham bog'liq bo'lib qoldi. Shu bois Yangi O'zbekistonda yoshlarda mediasavodxonlik, axborot madaniyati, kiberetika va raqamli bag'rikenglikni shakllantirish millatlararo totuvlik siyosati bilan uzviy bog'lanmoqda. Bu yangi yondashuv axborot xurujlari, nafrat tili va soxta axborotlarning salbiy ta'sirini kamaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Demak, millatlararo totuvlikning zamonaviy paradigmasi raqamli makonda ham fuqarolik birdamligini ta'minlash vazifasini qamrab olmoqda.

Ayni paytda jamiyatimizda millatlararo totuvlikning yangi mazmuni raqamli va global muhit talablariga mos ravishda kengayib, faqat turli millat vakillarining tinch-totuv yashashini emas, balki raqamli muloqot madaniyati, axborot xavfsizligi va virtual hamjihatlikni ham o'z ichiga olmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim platformalari va raqamli media millatlararo munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois turli millat vakillari ishtirokida o'tkazilayotgan onlayn forumlar, vebinarlar, "Do'stlik festivali"ning internet orqali jonli efirlari hamda yoshlar ishtirokidagi raqamli muloqot maydonlari o'zaro hurmat va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masalan, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar va mahalliy yoshlar ishtirokida tashkil etilayotgan onlayn davra suhbatlari hamda xalqaro talabalar klublari turli millat va madaniyatlar o'rtasida ochiq muloqotni rivojlantirib, raqamli makonda ijtimoiy ishonch muhitini shakllantirmoqda.

Globalashuv sharoitida millatlararo totuvlikning mazmuni yana bir jihat bilan boyimoqda va u ham bo'lsa tashqi axborot ta'sirlari, soxta xabarlar va millatlararo adovatni qo'zg'atuvchi destruktiv kontentga qarshi ma'rifiy immunitetni shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda. Amaliy misol sifatida davlat idoralari, milliy madaniy markazlar va yoshlar tashkilotlari hamkorligida ijtimoiy tarmoqlarda bag'rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy birlikni targ'ib qiluvchi videoroliklar, infografikalar va raqamli aksiyalar muntazam e'lon qilinmoqda. Shuningdek, turli millat vakillari ishtirokida Navro'z, Mustaqillik bayramlari va boshqa umummilliy tadbirlarning "YouTube", "Facebook" va "Telegram" platformalari orqali keng

yoritilishi nafaqat mamlakat ichidagi, balki xorijdagi vatandoshlar o'rtasida ham umumiy fuqarolik birdamligini mustahkamlamoqda. Natijada Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik an'anaviy ijtimoiy munosabatlar doirasidan chiqib, raqamli diplomatiya, axborot madaniyati va global fuqarolik mas'uliyati bilan uyg'unlashgan zamonaviy ijtimoiy qadriyatga aylanmoqda.

Ushbu sohadaagi yana bir muhim paradigmal xususiyat millatlararo totuvlikni strategik taraqqiyot resursi sifatida talqin etish bilan bog'liq. Agar avval totuvlik asosan mojarolarning oldini olish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali, investitsiya muhiti, innovatsiyalar va ma'naviy yuksalishning muhim omili sifatida baholanmoqda. Turli millat vakillarining intellektual, madaniy va iqtisodiy salohiyatini birlashtirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim resursga aylanmoqda. Shu jihatdan Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va ijtimoiy birdamlik endi faqat ijtimoiy barqarorlikni saqlash mexanizmi emas, balki milliy taraqqiyotning innovatsion, insonparvar va fuqarolikka asoslangan yangi paradigmasi sifatida shakllanmoqda.

Bu yondashuvga ko'ra, turli millat va elat vakillarining intellektual, madaniy va kasbiy salohiyatini birlashtirish iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va inson kapitalini rivojlantirishning muhim manbai hisoblanadi.

Masalan, sanoat zonalar, IT-parklar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda turli millat vakillarining bir jamoada mehnat qilishi bilimlar almashinuvini kuchaytiradi, innovatsion g'oyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, hududlarda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar milliy merosni saqlash bilan birga turizm, hunarmandlik, gastronomik festivallar va madaniy tadbirlar orqali hududlarning iqtisodiy jozibadorligini

oshirishga ham hissa qo'shmoqda. Bu esa millatlararo totuvlikni mamlakatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi amaliy resursga aylantirmoqda.

Strategik nuqtayi nazardan qaralganda, millatlararo totuvlik O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash va investitsiya muhitini yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror ijtimoiy muhit xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy va ijtimoiy sharoit yaratadi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda o'tkazilayotgan xalqaro forumlar, madaniy festivallar va iqtisodiy anjumanlarda turli millat va konfessiya vakillarining erkin ishtirok etishi mamlakatning ochiqlik va bag'rikenglik siyosati namoyoni sifatida baholanmoqda. Shu bilan birga, ta'lim, ilm-fan va yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalarda turli millat vakillarining teng ishtirok etishi inson kapitalini boyitishga, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga va Uchinchi Renessans g'oyalarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasidan strategik taraqqiyot, innovatsion rivojlanish va milliy raqobatbardoshlikning muhim resursi darajasiga ko'tarilmoqda.

Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va hamjihatlik uchun shukronalik hissi yurtimizda turli millat va elat vakillarining tinch, erkin va o'zaro hurmat muhitida yashayotganini qadrlash, uning qadriga yetish va bu ne'matni asrab-avaylashga intilishida namoyon bo'lishi kerak. Bu his-tuyg'u har bir fuqaroda nafaqat minnatdorlik, balki yurt tinchligi, ijtimoiy barqarorlik va millatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga daxldorlik tuyg'usini shakllantiradi.

Mas'uliyat esa ushbu totuvlik muhitini so'zda emas, balki amalga qo'llab-quvvatlash, boshqa millat vakillarining qadr-qimmati, tili, madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, kamsitish va adovatga yo'l qo'ymaslik, yosh avlodni bag'rikenglik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali namoyon bo'ladi.

Abduxoliq TASHANOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i, falsafa
fanlari doktori (DSc), dotsent



MARKAZIY OSIYODA SUV DIPLOMATIYASI: O'ZBEKISTONNING YANGI TASHABBUSLARI SAMARA BERMOQDA

Suv endi faqat tabiiy resurs emas. XXI asrda neft, gaz yoki transport yo'laklari qanchalik strategik ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, suv ham davlatlar tashqi siyosati va mintaqaviy xavfsizligining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bu ayniqsa iqlim o'zgarishi oqibatida muzliklar qisqarib, aholi soni va suvga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan Markaziy Osiyo uchun dolzarbdir.

Bugun mintaqadagi deyarli barcha yirik daryolar transchegaraviy hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv resurslari bir vaqtning o'zida bir nechta davlat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi, energetikasi va ekologik barqarorligi uchun xizmat qilmoqda.

BMT ma'lumotiga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining yarmidan ortig'i suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi. Iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va suv iste'molining ortishi bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, agar suv resurslarini boshqarishda hamkorlik kuchaytirilmasa, mintaqamizda iqtisodiy yo'qotishlar yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismiga yetishi mumkin. Shu bois keyingi yillarda "suv diplomatiyasi" tushunchasi xalqaro munosabatlarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Endi gap suvni qanday taqsimlash haqida emas, balki uni qanday birgalikda boshqarish, ma'lumot almashish, xavfni birgalikda prognoz qilish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash haqida bormoqda.

Bu jarayonda O'zbekiston so'nggi yillarda faqat milliy islohotlar bilan cheklanmay, Markaziy Osiyoda hamkorlikka asoslangan yangi yondashuvni shakllantirishga intilmoqda. O'lkamiz suv diplomatiyasini tashqi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari surmoqda.

RAQOBATDAN HAMKORLIKKA

Yaqin-yaqingacha Markaziy Osiyoda suv masalasi ko'proq bahslar bilan tilga olinar edi. Ayrim yirik gidroenergetika loyihalari, suv taqsimoti, vegetatsiya mavsumida suv chiqarish hajmlari yoki energetik almashuvlar bo'yicha kelishmovchilik mintaqa davlatlari munosabatida eng murakkab mavzudan biri hisoblangan.

2017-yildan boshlab vaziyat asta-sekin o'zgarib boshladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik va ishonchli muloqot tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi ekanini bir necha bor ta'kidladi. Bu yondashuv suv masalalarida ham amaliy natija berdi.

Davlat rahbarlari sammitlari muntazam o'tkazilmoqda, Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi doirasida hamkorlik faollashdi, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo'yicha muloqotlar yangi bosqichga chiqdi. 2023-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan Prezident Shavkat Mirziyoyev suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish, transchegaraviy suvlar bo'yicha xalqaro huquq normalariga amal qilish va Markaziy Osiyoda suv sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini alohida qayd etdi.

TASHABBUSLARDAN AMALIY NATIJALARGA

Markaziy Osiyoda suv masalasi bo'yicha muloqotlar davom etib keladi. Yangi jihat shundaki, keyingi yillarda ular deklaratsiya doirasidan chiqib, amaliy

hamkorlik bosqichiga o'ta boshladi. Buni bir nechta yo'nalishda kuzatish mumkin.

Avvalo, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo'yicha davlatlar o'rtasida muntazam siyosiy muloqot yo'lga qo'yildi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari doirasida suv masalasi alohida kun tartibiga aylandi. Bugun Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv taqsimoti, gidrotexnika inshootlaridan samarali foydalanish, mavsumiy suv chiqarish rejimlari kabi masalalar muntazam muhokama qilinmoqda. Mutaxassislar fikricha, bu ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi (ICWC) ma'lumotiga ko'ra, so'nggi yillarda suv taqsimoti bo'yicha qarorlarni qabul qilishda axborot almashish va qo'shma monitoring amaliyoti kengaymoqda. Bu yondashuv xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jahon banki hisobotiga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarini birgalikda boshqarish orqali milliardlab dollarlik iqtisodiy samaraga erishishi mumkin. Hisobotda qayd etilishicha, axborot almashish, muvofiqlashtirilgan rejalashtirish va qo'shma investitsiyalar suv xavfsizligini ta'minlashning eng samarali mexanizmlaridan hisoblanadi.

ASOSIY VAZIFA – MA'LUMOTNI BOSHQARISH

Ekspertlar fikricha, keyingi bosqichda asosiy masala yangi kanal yoki suv ombori qurish emas. Asosiy vazifa mavjud suv resurslarini aniq hisoblash, prognoz qilish va samarali boshqarishdir.

Joriy yil 30-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "O'zbekistonda suv sohasidagi islohotlar: erishilgan natijalar, mavjud chaqiriqlar va kelajak istiqbollari" mavzusidagi Ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi aynan shu masalalarga bag'ishlandi.

Muhokamalar markazida suv xavfsizligi, raqamlashtirish, transchegaraviy hamkorlik, iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarini boshqarish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish masalalari o'rin oldi. Yig'ilish yakunida ishlab chiqilgan takliflar sohani rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturiy va strategik hujjatlar uchun tahliliy asos sifatida qo'llanilishi belgilandi.

SUV DIPLOMATIYASINING YANGI BOSQICHI: RAQAMLI BOSHQARUV NIMA UCHUN MUHIM?

Bugungi kunda suv diplomatiyasi faqat davlatlar o'rtasida suv taqsimoti bo'yicha kelishuvlarga tayanib qolmayapti. Chunki suv resurslarini samarali boshqarish uchun birinchi navbatda aniq ma'lumot, ishonchli hisob-kitob va tezkor tahlil zarur.

Agar har bir davlat turli ma'lumotga tayansa, suv taqsimoti bo'yicha kelishuvga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun xalqaro ekspertlar keyingi bosqichni "ma'lumotlar diplomatiyasi" deb ham atamoqda. Ya'ni suv haqida barcha tomonlar ishonadigan yagona ma'lumot bazasi shakllanishi kerak.

Poytaxtimizda o'tgan Ekspertlar kengashida Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti (IWMI) va Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi Ilmiy axborot markazi bosh ilmiy xodimi Iskandar Abdullayev aynan shu masalaga e'tibor qaratdi.

Uning ta'kidlashicha, suv sohasidagi islohotlar alohida loyiha emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida ishlashi lozim.

– Raqamli ma'lumotlar hisobotlarni shakllantirishi kerak. Hisobotlar moliyaviy qarorlarga asos bo'lishi kerak. Moliyaviy qarorlar ishonchli xizmatlarni ta'minlashi, xizmatlar esa suv foydalanuvchilarining ehtiyojini qondirishi lozim, – deydi mutaxassis.

Bugunga qadar suv sohasida asosan infratuzilma qurishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, endi uni qanday boshqarish masalasi birinchi o'ringa chiqmoqda. Mutaxassisning fikricha, buning uchun suv havzalari bo'yicha "Digital Twin" raqamli tizim yaratilishi zarur.

Bu texnologiya daryo, kanal, nasos stansiyasi, suv ombori, yer maydonlari va suv iste'moli haqidagi ma'lumotni yagona raqamli modelga birlashtiradi. Natijada suv sarfi, ehtimoliy tanqislik, infratuzilma yuklamasi yoki avariya xavfi oldindan hisoblab chiqiladi. Sun'iy intellekt esa turli ssenariylarni tahlil qilib, qaror qabul qiluvchilarga eng maqbul variantlarni taklif etadi.

Bu yondashuvning yana bir muhim jihati suv masalasini faqat muhandislik nuqtayi nazaridan emas, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan birga ko'rishdir.

Masalan, ma'lum hududda suv tanqisligi yuzaga kelsa, tizim nafaqat suv hajmini, balki nasos stansiyalarining energiya sarfini, fermerlar ehtiyojini, moliyaviy xarajatlari va xizmat sifatiga ta'sirini ham baholaydi. Shu orqali qarorlar ehtimoliy muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki uning oldini olish bosqichida qabul qilinadi.

I. Abdullayev bu jarayonni raqamli-analitik adaptiv sikl deb ataydi. Unga ko'ra, avval ma'lumot yig'iladi, keyin raqamli model orqali turli ssenariylar hisoblanadi, sun'iy intellekt xavfni baholaydi, shundan so'ng moliyalashtirish va boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu yondashuv xalqaro tashkilotlar qarashlari bilan ham uyg'un.

Jahon banki hamda IWMI hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli monitoring, sun'iy intellekt va prognozlash texnologiyalari suv tanqisligiga tezroq javob berish, energiya sarfini kamaytirish hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

TASHABBUSLAR RAQAMLARDA QANDAY AKS ETMOQDA?

O'zbekistonning suv diplomatiyasi ichki islohotlar bilan uyg'un olib borilayotgani aniq raqamlarda ham ko'rinadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2026-yilning fevral oyida o'tkazilgan yig'ilishda ma'lum qilinishicha, bugun mamlakatda 2,6 million gektar sug'oriladigan yerda suv tejovchi texnologiya joriy etilgan. Bu jami sug'oriladigan maydonlarning 60 foizini tashkil etadi.

E'tiborlisi, 2017-yilgacha bu ko'rsatkich atigi 19 ming gektar edi. Natijada har yili 5 milliard kub metr suv tejalmoqda. 2028-yilgacha mazkur texnologiyalarni yana 930 ming gektar maydonga joriy etish, umumiy qamrovni 3,5 million gektar yoki sug'oriladigan yerlarning 80 foiziga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa yillik suv tejimini 3,5 milliard kub metrgacha oshirish imkonini beradi.

Bu raqamlar suv diplomatiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakat ichida suvdan tejamkor foydalanish darajasi oshgani sari transchegaraviy suv resurslariga bosim ham kamayadi.

2025-yilning avgustida tasdiqlangan 2025–2028-yillarga mo'ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sohasini rivojlantirish dasturi ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Dasturga muvofiq:

- 2 551 kilometr irrigatsiya tarmog'i rekonstruksiya qilinadi;
- 12 ta yirik gidrotexnika inshooti avtomatlashtiriladi;
- 12 ming melioratsiya qudug'i va 1 750 nasosda raqamli monitoring joriy etiladi;

• sohadagi 11 ta axborot tizimi yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi. Hukumat hisob-kitobiga ko'ra, ushbu choralar natijasida 2028-yilga borib yillik suv tejami 14 milliard kub metrga yetishi kutilmoqda.

Raqamlashtirish endilikda faqat ichki boshqaruv vositasi emas, balki suv diplomatiyasining ham muhim elementiga aylanmoqda. Chunki ochiq va ishonchli ma'lumot qo'shni davlatlar bilan muloqot uchun umumiy faktlar maydonini shakllantiradi.

O'ZBEKISTON TAKLIF QILAYOTGAN YANGI KUN TARTIBI

O'zbekiston Markaziy Osiyoda suv masalasini siyosiy bahs emas, amaliy hamkorlik mavzusiga aylantirishga intilayotgani kuzatilmoqda.

2025-yilda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida Prezident Sh. Mirziyoyev mintaqada suv tanqisligi kuchayib borayotganini qayd etib, 2026–2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish tashabbusini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Amudaryo havzasida suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha Afg'onistonni ham mintaqaviy muloqotga jalb etish muhimligini ta'kidladi. Shu bilan birga, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzurida Markaziy Osiyo suv boshqaruvi kompetensiyalar markazini tashkil etish taklif qilindi.

Bu tashabbuslar O'zbekistonning suv diplomatiyasi endi faqat resurslarni taqsimlash bilan cheklanmasdan, kadrlar tayyorlash, raqamli texnologiya, ilmiy hamkorlik va umumiy boshqaruv madaniyatini shakllantirishga ham qaratilganini ko'rsatadi.

Dilshod HAKIMOV
O'ZA

"Mard o'g'lon" sohibi



ISHONCH YUKINI MARDONA KO'TARGAN O'G'LO

Qahramonlik doim ham shovqin bilan o'zini anglatmaydi. U ba'zan sokin qishloq ko'chasida, hali hech kim tanimaydigan bolaning qalbida ildiz otib, yillar davomida pinhona ulg'ayadi. Vaqt o'tib, uning orzulari, intilishlaridan kuch olib, o'zini namoyon qiladi. Kichik serjant Rahim Allashov ham ana shunday – qahramonlikni qalbida ulg'aytirgan, orzularini ro'yobga chiqargan, intilishlarini esa Vatan sha'nini yuksaltiradigan yutuqlarga aylantira olgan yigitlardan.

tobladi. Mashg'ulotlardagi har bir murakkablik, sport musobaqalaridagi raqobat men uchun yangi sinov bo'ldi. Har kuni ularda toblanib, nafaqat jismonan, balki ruhan kechagidan kuchliroq bo'lishga harakat qildim. Va shuni anglab yetdimki, Vatan himoyachisi bo'lish – bu yurt ishonchi demak. Ishonchga munosib bo'lish esa oson emas, – deydi kichik serjant Rahim Allashov.

YUTUQ INSONNI RUHLANTIRADI

Harbiy qismda sport musobaqalari tez-tez tashkil etilardi. Ana shu muhit Rahimning qobiliyatini ochib bergan muhim omil bo'ldi. U dastlab musobaqalarda shunchaki ishtirokchi sifatida qatnashgan bo'lsa, keyinchalik ilg'or sportchilar safidan o'rin egallay boshladi. Ilk kichik g'alabalar uni ruhlantirdi, unda ishonch uyg'otdi va o'z ustida yanada jiddiy ishlashga turtki berdi. Shu tariqa sport uning hayotida oddiy mashg'ulot emas, balki kundalik mehnat, ichki intilish va o'zini tarbiyalash vositasiga aylandi. U faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmadi, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham ilg'orlar qatoridan joy olishga intildi. Shunday qilib, armiya saflaridagi bir yil ko'z yumib-ochguncha o'tib ketdi. Ammo aynan shu davr uning kelgusi yo'lini belgilab berdi – u xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirishga qat'iy qaror qildi. Uning bu qarorini oila a'zolari ham qo'llab-quvvatladi.

– Shunday qilib, Qurolli Kuchlar safida xizmat qila boshladim, – deydi qahramonimiz. – Sportchi ekanim keyingi xizmat faoliyatimda ham qo'l keldi: Xalqaro armiya o'yinlarida ishtirok eta boshladim. Jumladan, 2021-yilda Rossiyada o'tkazilgan "Qo'shinlar razvedka a'lochisi" musobaqasida qatnashdim. Usha musobaqada yakka tartibdagi shartni bajarishda rekord o'rnatishim uchun yarim soniya vaqt yetmadi va bu menga saboq bo'ldi. Keyingi bir yil kamchiliklarim ustida ishladim. Muhimi, men ilk musobaqada yaxshi tajriba to'plagandim va 2022-yilda ham xuddi shu musobaqada safdoshiga jang maydonida birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish shartini 36 soniyada bajarib, rekord natija qayd etdim. 2021-yilda Pokistonda bo'lib o'tgan "Jamoaruhi" musobaqasida jamoamiz ilk bor qatnashgan bo'lsa ham, 1-o'rinni qo'lga kiritdik va hozirgi kungacha mana shu natijani saqlab kelyapmiz. 2022-yilda esa Buyuk Britaniyada o'tkazilgan "Kembriya patruli"

musobaqasida ishtirok etdim. Unda turli davlatlardan kelgan 103 ta jamoa qatnashgandi. Ular orasida kuchlilari ko'p edi. Biz mana shu raqobatga tayyor bo'lib borgandik. Bundan avvalgi yillari ular bizning jamoani uncha pisand qilmagan bo'lsa, musobaqadagi ishtirokimiz, erishgan natijalarimiz tufayli keyingi yillari bizga qarab, "Ana, raqiblarimiz kelibdi!" deyidigan bo'ldi. Bundan g'ururlanamiz. Chunki bizni tan olishyapti, demak, biz kuchlimiz!

Bugun erishayotgan yutuqlarimga qarab, qalbimda qoniqish hissini tuyaman. Chunki bu yutuqlar bir kunlik natija emas, balki orzular yo'lida bosib o'tilgan mashaqqatli yo'lning samarasi.

– Siz ham namunali, ilg'or harbiy xizmatchisiz. U qanday fazilatlar egasi bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?

– Namunali harbiy xizmatchi u doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi: bilimini oshiradi, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini mukammallashtiradi. Chunki bugungi kunda harbiy xizmatdan nafaqat jasorat, balki keng dunyoqarash, tez fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi. Ana shunday fazilatlar uyg'unligi namunali harbiy xizmatchini shakllantiradi deb hisoblayman. Yana u safdoshlari o'rtasida eng yaxshi insoniy fazilatlar bilan shaxsiy namuna ko'rsata olmog'i shart deb bilaman. Bilasizmi, ayrim holatlarda rasmiyatchilikdan qochib, samimiy bo'la olishi jamoada birodarona ruhni ta'minlaydi. Shu bilan birga, bunday harbiy xizmatchi intizomli, mas'uliyatli va har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaydigan bo'lishi kerak. U nafaqat berilgan buyruqni bajaradi, balki uning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, tashabbus ko'rsata oladi. Menimcha haqiqiy harbiy xizmatchi bu faqat kuchli jismoniy tayyorgarlikka ega inson emas, balki mustahkam iroda, sof vijdon va Vatan oldidagi burchini yurakdan his qiladigan shaxsdir.

– Harbiy xizmatchi sifatida siz intilgan komillikni ta'riflab bering.

– Men uchun komillik bu doimiy harakat, uzluksiz izlanish demakdir. Ya'ni inson "men maqsadimga erishdim", deb to'xtab qolmasligi kerak. Aksincha, shu kungacha erishgan yutug'idan ham yuksak yutuqlarni ko'zlab harakat qilishi kerak. Chunki doimiy intilish komillikka olib boradi deb hisoblayman. Harbiy xizmatchi sifatida esa komillik bir necha jihatlarining uyg'unligida namoyon

bo'ladi: jismoniy baquvvatlik, mustahkam iroda, tez va to'g'ri qaror qabul qila olish, shuningdek Vatan oldidagi burchni chuqur anglash. Agar shu fazilatlar bir-biri bilan uyg'unlashsa, inson o'z kasbida ham, hayotda ham barqaror natijaga erisha oladi.

– Ayting-chi, bolaligingizda ota-onangizdan olgan qaysi saboq bugungacha sizga asqatyapti?

– Otamdan mehnat insonni ulug'lashi mumkinligi sabog'ini olganman. Onam esa doim bir gapni takrorlardi: "inson bo'lish qiyin emas, insonligingni saqlab qolish qiyin". Haqiqatan ham vaqt o'tib tushundimki, har qanday sharoitda inson o'zligini yo'qotmasligi eng katta tarbiya ekan. Bugun harbiy xizmatda ham, sportda ham men shu saboqlarga suyanaman. Qiyin vaziyatlarda orqaga chekinish emas, mas'uliyatni zimmaga olishni, g'alaba kelganda esa kibrga berilmaslikni ham aynan oilamdan o'rgandim. Shuning uchun men uchun ota-onam bergan tarbiyani har kuni meni olg'a boshlab borayotgan kuch deb qadrlayman.

– Siz uchun oila nima?

Orom maskanimi yoki yana bir mas'uliyat? O'zingizni oilada ham namunali insonman deya olasizmi?

– Oila orom maskani bo'lish bilan birga katta mas'uliyat hamdir. Qizim Perizadni qo'limga olganimga, uning kelajagi uchun yanada mas'uliyatli bo'lishim kerakligini his qilaman. Uning ko'zlarida men uchun eng katta ishonchni ko'raman. Turmush o'rtog'im ham hozir bor e'tiborini farzand tarbiyasiga qaratgan. Men esa uning mehnatini qadrlayman va imkonim boricha qo'llab-quvvatlashga harakat qilaman. Menimcha haqiqiy namunalilik uйда – oilang, turmush o'rtog'ingga qanday munosabat ko'rsatish bilan ham o'lchanadi. Shuning uchun oilada bag'rikeng inson bo'lishga harakat qilaman.

– Yuksak mukofotni qo'lga kiritganingizda, eng avvalo, kimni esladingiz va yaqinlaringizning quvonchi sizga qanday ta'sir qildi?

– Shu lahzada, eng avvalo, ota-onamni esladim. Chunki bu mukofotgacha bo'lgan yo'lida ularning mehnati, tarbiyasi borligini yana bir bor ta'kidlab o'tishim joiz. Mukofotni Yurtboshimiz qo'lidan qabul qilib olayotganimga ham bu faqat mening emas, butun oilamizning yutug'i ekanini angladim. Prezidentimizning ishonchi, yaqinlarimning quvonchi esa menga yanada katta mas'uliyat yukladi – ularning ishonchini oqlash va munosib bo'lish uchun yanada ko'proq harakat qilishim kerakligini his qildim.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA
suhbatlashdi.**

U bugun chin ma'nodagi qahramon harbiy xizmatchi. Yillar davomida Xalqaro armiya o'yinlarida qo'lga kiritgan yuksak natijalari, o'rnatgan rekordi orqali nafaqat o'z salohiyatini, balki milliy armiyamizning qudratini, uning saflaridagi harbiy xizmatchilarning mahorat-u jasoratda tengsiz ekanini amalda isbotlab bergan Yangi O'zbekistonning mard o'g'loni. Vatan uchun qilingan hech bir amal beiz ketmaydi, deganlaridek, uning bu boradagi jonkuyarligi Yoshlar kuni bayramida e'tirof etilib, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Rahim Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi Xamsariq qishlog'ida tug'ildi. Oilada to'rt akasi va bir singlisi bor edi. Katta oila, katta tarbiya maktabi edi aslida. Otasi Tolibay aka – usta, bolalariga mehnatning qimmatini o'rgatgan inson bo'lsa, onasi To'xtash opa butun hayotini farzand tarbiyasiga bag'ishlagan, ular qalbiga mehr va odamiylik urug'ini sepkan ayol edi. Bu oilada Rahimning taqdiriga ta'sir qilgan bir inson bor edi – bu akasi Hayrat.

Harbiy libosdagi akasi uning uchun nafaqat g'urur, balki harbiy kasbga qiziqishi sababchisi ham edi. Egnidagi libosi o'ziga yarashgan bu o'ktam yigit qishloq ahlining e'tiborida edi. Bundan yosh Rahim g'oyat g'ururlanardi. Akasi har gal ta'tilga chiqib, uylariga kelganida bolakay uni adoqsiz mehr bilan kuzatib turardi. U akasining o'ziga bo'lgan ishonchiga, nigohidagi qat'iyatga, dangal so'zlashlariga havas qilardi. Vaqt o'tib, aynan shu havas uning taqdirini o'zgartirdi.

– Tumanimizdagi qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejini tamomlab, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga hujjat topshirganman. Lekin omadim kelmadi. Keyin Vatan oldidagi yigitlik burchimni o'tash uchun yo'l oldim. Armiyaga kelgan ilk kunlarimdayoq bir narsani tushunganman: harbiy xizmatchi bo'lish uchun faqat xohishning o'zi yetarli emas. Bunda jismoniy chiniqish, ruhiy bardosh, intizom ham muhim. Boshida oson bo'lmagan: yangi muhit, qat'iy tartib, yuqori talab. Biroq qiyinchiliklar meni sindirmadi, aksincha,

O'quv kursi

RUHIY BARQARORLIK – G'ALABA GAROVI

Harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi nafaqat uning jismoniy salohiyati, balki ruhiy barqarorligi, liderlik qobiliyati va stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi bilan ham belgilanadi. Shu maqsadda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti huzurida Mudofaa vazirligining Psixologik tayyorgarlik markazi samarali faoliyat yuritmoqda.

Markazda yuqori malakali mutaxassislar tomonidan harbiy xizmatchilarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Ularda qo'shinlardagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy psixologlar, yetakchi sotsiologlar, guruh komandirlari,



ularning o'rinbosarlari hamda yo'riqchi serjantlar ishtirok etib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Navbatdagi malaka oshirish kursida qo'shinlarda xizmat qilayotgan guruh komandirlari o'rinbosarlari va vzvod serjantlari qatnashdi. 108 soatlik maxsus dastur asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga amaliy, jismoniy va psixologik tayyorgarlikni qamrab oldi.

Darslar davomida ishtirokchilarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, turli xizmat vaziyatlarida shaxsiy tarkibning psixologik holatini baholash, ekstremal sharoitlarda



psixologik yordam ko'rsatish, jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik ta'sir usullaridan samarali foydalanish hamda qurol-yarog' va jangovar texnikalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalar takomillashtirildi.

Yozning jazirama issig'iga qaramay, mashg'ulotlar reja asosida davom etdi. Toshkent harbiy okrugining "Chirchiq" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan amaliy mashqlar davomida tinglovchilar belgilangan vazifalarni yuksak mahorat, matonat va intizom bilan bajardi.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jamoaviy birdamligi va ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi maxsus psixologik-taktik yo'lakda har bir ishtirokchi o'z imkoniyatlarini amalda namoyon etdi.

– Mashg'ulotlar davomida harbiy xizmatchilarning jamoaviy birdamligi, ruhiy barqarorligi, liderlik qobiliyati, stressga

chidamliligi va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini real sharoitga yaqin muhitda baholash hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi, – deydi polkovnik Akromjon Shohakimov. – O'quv jarayonida jahon armiyalarining ilg'or tajribalari o'rganildi. Ishtirokchilar 240 metrlik maxsus psixologik-taktik yo'lak bo'ylab harakatlanib, 15 ta sun'iy va tabiiy to'siqni yengib o'tdi. Mashg'ulotlar davomida jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda mantiqiy fikrlash, psixologik barqarorlik, jamoaviy hamkorlik, taktik-tibbiy amaliy ko'nikmalar hamda liderlik salohiyatini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning amaliy harakatlari, jamoaviy muvofiqlashuvi, intellektual faolligi, stress sharoitida qaror qabul qilish tezligi va taktik vazifalarni bajarish sifati kompleks tarzda baholandi. Bu kabi mashg'ulotlar harbiy

xizmatchilarning shaxsiy tarkib bilan ishlash borasidagi amaliy tajribasini yanada boyitmoqda.

Tajriba-sinov mashg'ulotlari harbiy xizmatchilarning jamoaviy birdamligi va ruhiy barqarorligini kompleks shakllantirishga qaratilgan yondashuvning amaliy samaradorligini yana bir bor tasdiqladi. Mashg'ulotlar yakunida olingan natijalar ushbu tizimni yanada takomillashtirish, uni harbiy ta'lim muassasalari va harbiy qismlar amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish hamda bu borada ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kichik serjant
Komiljon ABDURASHIDOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Axborotlashtirish
va multimedia markazi
texnik operatori**



Armiyamiz suyanchi va tayanchi

SERJANTLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGICHA RUH VA YONDASHUV

Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida yuz berayotgan qurolli mojarolar zamonaviy urushlarning mazmuni va olib borilish usullarini tubdan o'zgartirib yubordi. Ushbu jarayon harbiy ta'lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Shu bois harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari zamonaviy jangovar harakatlar tajribasini chuqur o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda bo'lajak serjantlarda zamonaviy jang olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Bugungi jangovar harakatlarda quyidagi zamonaviy vosita va texnologiyalardan keng foydalanilmoqda:

- uchuvchisiz uchish apparatlari;
- sun'iy intellekt elementlari;
- radioelektron kurash vositalari;
- yuqori aniqlikdagi qurol tizimlari;
- raqamli boshqaruv va axborot-kommunikatsiya tizimlari.

Mazkur texnologiyalarning jang maydonida keng qo'llanilishi harbiy xizmatchilarni, ayniqsa serjantlar tarkibini tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Endilikda serjantlar nafaqat qurol-aslahalarni mukammal egallashi, balki zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, tezkor qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish, bo'linmalarni samarali boshqarish hamda murakkab jangovar vaziyatlarda mustaqil harakat qilish ko'nikmalariga ham ega

bo'lishlari zarur. Shu sababli jangovar tayyorgarlik fanlarining mazmunini zamonaviy urushlar tajribasi asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda uning tasarrufidagi o'quv markazlarida serjantlarni tayyorlash tizimi zamonaviy talablar asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. O'quv jarayoniga zamonaviy urushlarni tahlil asosida harakatlar algoritmlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, elektron ta'lim platformalari hamda simulyatorlar va amaliy mashg'ulotlarning yangi usullari joriy etilmoqda.

Bu esa tinglovchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mashg'ulotlarda kursantlarni baholashda xorijiy tajribalar hamda KPI tizimlaridan keng miqyosda foydalanilib, baholashning yangi bosqichlari joriy etilgan.

Jangovar tayyorgarlik fanlari serjantlarni tayyorlash tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, unda kichik guruh komandirlarida qaror qabul qilish, jang maydonida bo'linmalarni boshqarish, qurol-aslahalardan samarali foydalanish, joyni muhandislik jihatdan jihozlash, o'zlari va qurol-aslahalarini niqoblash, jangovar vaziyatni baholash, taktik harakatlar hamda jang maydonida

xavfsizlik qoidalariga rioya etish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Mazkur jangovar tayyorgarlik fanlari dastlab nazariy hamda shu bilan bir qatorda dala-o'quv mashqlari orqali ham mustahkamlanadi.

Zamonaviy harbiy mojarolar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jangovar tayyorgarlik faqat qurolni mukammal egallash bilangina cheklanmaydi. Harbiy xizmatchi tezkor fikrlash, tashabbuskorlik, jamoa bilan ishlash, ruhiy barqarorlik, axborotni tahlil qilish hamda murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, serjantlar ushbu fazilatlarini o'zida mujassam etgan holda bo'linmaning jangovar ruhini saqlash va boshqarishda muhim o'rin egallaydi.

Shu nuqtayi nazardan, jangovar tayyorgarlik fanlari mazmunini zamonaviy urushlar tajribasi asosida boyitish, uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi harakat qilish usullari, radioelektron kurash, taktik meditsina, axborot xavfsizligi va zamonaviy taktikalarni o'quv dasturlariga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv serjantlarning kasbiy mahoratini oshirish, bo'linmalarning jangovar shayligini mustahkamlash hamda Qurolli Kuchlarning umumiy jangovar salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda.

Jahonning ilg'or harbiy ta'lim muassasalari va tayyorgarlik markazlari tajribasini o'rganish natijasida quyidagi zamonaviy o'quv metodlari jangovar tayyorgarlik samaradorligini oshirishda yuqori natija berishi aniqlangan.

Xususan, bizning Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda uning bo'ysunuvidagi markaz va bazalarda ham o'z tasdig'ini topgan.

• **“Teamwork Training”** (Buyuk Britaniya) – bo'linma a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, jipslik, muvofiqlashtirilgan harakat va samarali muloqotni shakllantirishga qaratilgan jamoaviy mashqlar tizimi.

• **“Stalking”** (Fransiya) – dushman kuzatuv vositalariga sezilmagan

holda yashirin harakatlanish, tabiiy va sun'iy to'siqlardan unumli foydalanish hamda obyektga imkon qadar yaqin masofaga aniqlanmasdan yetib borish ko'nikmalarini rivojlantirish usuli.

• **“Compass Navigation Drill”** (Pokiston) – magnit kompas va azimut yordamida kunduzgi hamda tungi sharoitlarda xaritasiz yoki cheklangan ma'lumotlar asosida yo'nalishni aniq belgilash va harakatlanish ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashqlar majmuasi.

• **“Dry Fire Training”** (Italiya) – o'q-dori sarflamasdan qurol bilan xavfsiz mashq qilish usuli bo'lib, bunda to'g'ri ushlash, nishonga olish, nafasni boshqarish, tepkini bosish va qurolni barqaror ushlab turish kabi elementlar takomillashtiriladi.

• **“Wind Reading”** (Shamolni o'qish) – mergan va o'qchilar uchun shamolning yo'nalishi, tezligi hamda atrof-muhit omillarini baholash orqali o'qning uchish trayektoriyasiga zarur tuzatmalarni kiritishga asoslangan zamonaviy uslubi. Ushbu metod uzoq masofalarga aniq o'q otish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

• **“Train by Video Content”** – videodarslar, interaktiv roliklar va real jangovar vaziyatlar tahlili asosida ta'lim berish metodi. Ushbu yondashuv ayniqsa raqamli texnologiyalar muhitida voyaga yetgan Z avlod vakillarini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, nazariy bilimlarni vizual tarzda tezroq o'zlashtirish hamda amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur zamonaviy metod va uslublarni jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlariga tizimli ravishda tatbiq etish, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati, mustaqil fikrlashi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati hamda bo'linmalarning o'zaro hamkorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mayor Behruz ABDURAHIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi o'qituvchisi



1992-yil: "Vatanparvar" xronikasi

ARMiya: KECHA VA BUGUN

Har bir buyuk ishning ortida mashaqqatli boshlanish nuqtasi turadi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari bugun mintaqaning eng qudratli armiyalaridan biriga aylangan bo'lsa, uning ilk poydevori 1992-yilning murakkab sharoitida, fidoyi yurtdoshlarimizning shijoati bilan yaratilgan edi.

Mustaqillik ayyomiga qadar gazetamizning har bir sonida e'lon qilinishi rejalashtirilgan 1992-yilda chop etilgan, o'zbek armiyasining ilk kunlarini aks ettiruvchi ushbu maqolalar o'zbek harbiy jurnalistikasining asl xazinasi va milliy armiyamiz shakllanishining jonli xroniksidir.

General-mayor Vladimir MAHMUDOV: “VAZIFAMIZ — YUQORI MALAKALI OFITSER KADRLAR TAYYORLASH”

TVOKU (Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti) boshlig'i general-mayor V. MAHMUDOV maxsus muxbirimiz kapitan Y. SHALNEVning savollariga javob beradi.

“Vatanparvar” gazetasi, 1992-yil 25-avgust, 186-son.



Tarjimai hol: 1944-yil 2-oktabrda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Qurolli Kuchlar safida 1963-yildan buyon xizmat qiladi. Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtini (1967-y.), Frunze nomidagi Harbiy akademiyani (1977-y.) tamomlagan. 1979-yildan 1981-yilgacha Afg'oniston Respublikasida baynalmilal burchini ado etgan.

“Qizil Yulduz”, “Hurmat Belgisi” ordenlari va ko'plab medallar bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Respublikasi xalq deputati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Davlat va jamoat xavfsizligi, Mudofaa hamda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalari qo'mitasi a'zosi.

– Bilim yurti boshlig'i lavozimida bo'lgan to'rt oylik faoliyatingiz davomida nimalarga erisha oldingiz?

– Ofitserlar va praporshchiklarning sezilarli qismida xizmat va lavozimga nisbatan faollik ortib bormoqda. Bu jarayon biz xohlaganchalik tez kechmayotgan bo'lsa-da, ularning bundan keyin ham ishlashga bo'lgan xohish va intilishlaridan dalolat beradi.

Bugungi kunda Respublika Mudofaa vazirligi va shaxsan vazir general-leytenant R.U. Ahmedovning ko'magi bilan shaxsiy tarkibning turmush tarzi va maishiy sharoitlarini yaxshilash choralari ko'ryapmiz. Kazarma fondi ta'mirlanmoqda, kursantlar va askarlar oshxonalarini tartibga keltiryapmiz, taomlar xilma-xilligini oshirish imkoniyatlarini izlayapmiz.

Bilim yurti hududini obodonlashtirishga ham katta e'tibor

qaratilyapti, bundan ko'zlangan maqsad ham kursantlar, ham mehmonlar uchun shinam muhit yaratishdir. Kadrlar siyosatidagi urg'uni ham biroq o'zgartirishga muvaffaq bo'ldik. Qo'mondonlik bo'g'inida o'zbekistonlik ofitserlarning ulushi ortdi. Bu ayniqsa yangi qabul qilingan kurs misolida ko'zga yaqqol tashlanadi. Xizmat manfaatlari yo'lida bir qator ofitserlarni gorizontali yo'nalishda boshqa lavozimlarga o'tkazishga to'g'ri keldi. Ularning o'rniga ishlashga chin dildan intiladigan va harakat qiladiganlar keldi. Bundan ijobiy natijalar kutib qolamiz.

Biroq muammolar hali ham ko'p. Yaxshi g'oyalar, rejalar bor. Ularni amalga oshirishda ofitserlar tarkibi, praporshchiklar, bilim yurti ishchi va xizmatchilarining hamfikrligiga ishonaman.

– Kirish imtihonlari yakunlari qanday bo'ldi?

– Bilim yurtining 70 yildan ortiq tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasidan ofitserlik kasbini tanlash ishtiyoqida bo'lganlarning katta oqimi kuzatildi. Albatta, hujjat topshirganlarning hammasi ham bu qarorni ongli ravishda qabul qilmaganini yaxshi tushunardik. Shunday bo'lsa-da, abituriyentlarning 1317 ta shaxsiy hujjati kelib tushgani ko'p narsadan dalolat beradi. Ularning 1155 nafari O'zbekiston Respublikasidan ariza topshirgan. Bugungi kunda bir necha yuz yigit kursantlikka qabul qilindi, ularning aksariyati respublikamiz vakillaridir.

Bu natija bizni bir tomondan quvontirsa, ikkinchi tomondan xafa qiladi.

Quvonarli jihati shundaki, o'z taqdirini armiya bilan bog'lashni chin dildan xohlayotgan tub mahalliy millatga mansub yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Ularning sinovlarni topshirishda bor kuchini ishga solib, hatto imtihonlardan qoniqsiz baho olganda ham, taslim bo'lmay harakat qilganlarida bu yaqqol ko'rindi. Bu juda yaxshi. Mening ishonchim komil: ishtiyoq bo'lsa, qolgan hamma narsaga vaqt o'tib erishiladi.

Ammo bu yilgi abituriyentlarning umumta'lim darajasi juda pastligi odamni xafa qiladi. Ko'pchilik matematika, fizika va rus tili bo'yicha maktab dasturini yetarli darajada o'zlashtirmagan. Bu ayniqsa qishloq tumanlarida tahsil olgan yigitlarga xos. Ayb ularda emas, balki

umumta'lim maktablarimizning umumiy muammosi (dardi)dadir. Afsuski, u yerlarda o'qitish darajasi yuqori emas.

Yana bir ranjitadigan holat shundaki, viloyat va tuman mudofaa ishlari bo'limlari hamda boshqarmalari abituriyentlarning sifatiga emas, ko'proq soniga e'tibor qaratgan. Joylarda hech qanday dastlabki tayyorgarlik va suhbatlar o'tkazmay, faqat xohlovchilarni jo'natib yuboraverishgan. Oqibatda biz ularni bilim yurtiga qabul qila olmay, rad javobini berish orqali dillarini og'ritishga majbur bo'ldik.

Shunday bo'lsa-da, Toshkent shahri va viloyati, Samarqand, Farg'ona, Namangan hamda Qashqadaryo viloyatlari bo'yicha ko'rsatkichlar yomon emas. Bu hududlarda ham miqdor, ham sifat jihatidan saralash yaxshiroq tashkil etilgan.

– O'quv dasturida qanday yangiliklar bo'ladi?

– O'quv dasturini jiddiy o'zgartirish haqida gapirishga hali erta, qolaversa, bu mening vakolatimga kirmaydi. Oliy harbiy ta'lim muassasasining vazifasi avvalgidek qolmoqda – motoo'qchi qo'shinlar uchun yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlash. Bundan tashqari, o'qish davrida biz kursantdan avtomobil va tank texnikasidan foydalanish bo'yicha muhandis-mutaxassis tayyorlashimiz lozim.

Biroq bugun zamon shiddatli, ko'p narsa o'zgaryapti, qadriyatlar qayta baholanmoqda. Shu bois biz yangi qabul qilingan kontingentni va ularning umumta'lim darajasini hisobga olgan holda 1 va 2-semestrlardagi o'quv dasturiga biroq o'zgartirish kiritishga majbur bo'ldik. Bundan maqsad, shu vaqt ichida o'rta maktab dasturidagi bo'shliqlarni, xususan aniq fanlar va rus tili bo'yicha bilimlarni to'ldirishdir. Ayni vaqtda shu yildan boshlab bilim yurtida rus tilini sust biladigan kursantlar uchun rus tilini, rus tilida so'zlashuvchi yigitlar uchun esa o'zbek tilini majburiy o'rganish joriy etilmoqda. Ishonchim komilki, bu har ikki tomon uchun ham faqat foyda keltiradi.

– Professor-o'qituvchilar tarkibi qanday tayyorgarlikdan o'tmoqda?

– Umuman olganda, bilim yurtining o'qituvchilar tarkibi o'z vazifasiga to'liq javob beradi. Ularning mutlaq ko'pchiligi qo'shinlarda

xizmat tajribasiga ega bo'lgan yuqori malakali pedagog-uslubchilardir. Ularning orasida 8 nafar fan doktori va fan nomzodi bor. Bilim yurti boshlig'i sifatida asosiy vazifalarimdan birini mana shu salohiyatni saqlab qolishda ko'raman.

Ularning tayyorgarligiga to'xtaladigan bo'lsak, bilim yurtida o'quv-uslubiy yig'inlar, kafedralararo kengashlar, ko'rgazmali-uslubiy mashg'ulotlar va boshqa tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Bundan tashqari, ilmiy ishlar ham olib borilyapti. Ikki nafar o'qituvchimiz sirtqi aspiranturada tahsil olmoqda.

– Afg'onistondagi jangovar harakatlar paytida orttirilgan tajriba o'qitish jarayonida qanday qo'llanilyapti?

– Hozirgi vaqtda bilim yurtimizda turli yillarda Afg'oniston olovini kechgan, jangovar harakatlar tajribasiga ega 26 nafar ofitser va praporshchik xizmat qilmoqda. Bilim yurtimiz bitiruvchilari orasida ham “afg'onchilar” kam emas, ularga bag'ishlangan ekspozitsiyalar bilim yurtining “Shon-sharaf” muzeyidan joy olgan.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida Afg'oniston mavzusi faqat qora ranglarda taqdim etilmoqda. O'zining harbiy burchini halol va vijdonan bajarganlar haqida yo indalmaydi yoki faqat salbiy ohangda “sovet tashviqoti tomonidan aldangan odamlar” sifatida gapiriladi. O'z o'rtoqlariga xiyonat qilganlar esa deyarli qahramon darajasiga ko'tarilyapti.

Bu urushga allaqachon baho berilgan. U urushni keltirib chiqargan siyosatchilarning vijdoniga havola. Ammo bu yerda o'z harbiy va baynalmilal burchini bajaryapman degan qat'iy ishonch bilan jang qilgan va halok bo'lgan oddiy askar va ofitserlarning nima aybi bor?! Biz bugungi yoshlarni kimning misolida tarbiyalashimiz kerak: shu nomaqbul urushda qahramonlarcha halok bo'lganlar timsolidami yoki xiyonat evaziga tirik qolganlar misolidami? Menimcha javob bitta va aniq.

O'z Vatani vatanparvar jangchisini, baynalmilalchi insonni tarbiyalash avvalgidek bizning ishimizning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi. Shundoq ekan, biz bu insonlarni va ularning jangovar tajribasini aslo unutmaymiz.

Furqat ERGASHEV tayyorladi.

O'tmish zarvaraqlari

JANGCHILARNI UYG'OTGAN KUYLAR:

DOSTONLARDA HARB ISHI VA MUSIQA

Urush va jangovar to'qnashuvlar kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri eng og'riqli mavzulardan biri hisoblanadi. U o'z mohiyatini qadimdan to hozirga qadar yo'qotmay kelmoqda. Harbiy to'qnashuvlarning muntazam amalga oshirilishi ma'lum ma'noda har bir jamiyatning harbiy mahorat va usullari, shuningdek qadriyatlarining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ibn Xalduinning nazariyasiga ko'ra, harbiy to'qnashuvlarning asosi odamlarning bir-biridan qasos olish istagiga borib taqaladi. Bunda to'qnashayotgan har bir tomonni o'z jamoasi qo'llab-quvvatlagan. Agar ikkala tomon urushishni qasd qilib, bir-biriga qarama-qarshi yuzlandilarmi, biri qasos olishga, ikkinchisi esa o'zini himoya qilishga intiladi, ana o'shanda urush yuzaga keladi. Urush inson tabiati uchun tabiiy hol bo'lib, undan hech bir xalq yoki avlod butunlay xoli bo'la olmaydi. Tarixiy jarayonlarda urushlarga oid qadriyatlar nafaqat tarixiy yozma manbalarda, balki xalqning donishmandlik mahsuli hisoblangan og'zaki ijodda ham o'z aksini topgan.

O'zbek baxshilari yaratgan dostonlarda xalqimizning tarixiy-etnografik urf-odatlarini, an'analari hamda harbiy qadriyatlari aks ettirilgan. O'zbek xalq dostonlari folklorshunos olimlar tomonidan 20 yuzyillikning 20-yillaridan yozib olish ishlarini boshlagan, biroq bu dostonlarni aynan shu vaqtda paydo bo'lganini anglatmaydi. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'lining beshinchi ajdodi Yodgor baxshi 17-yuzyillikning ikkinchi yarmi 18-yuzyillikning boshlarida yashagan. Ergash shoimning yetti otabobosi baxshi o'tganini hisobga olsak, yanada ilgarigi davrlarda, masalan, 15-16-yuzyilliklarda maxsus dostonchilar faoliyat yuritgan bo'lish ehtimoli yuqori. Baxshilar ijodi orqali xalqimizning harbiy-jangovar qadriyatlari og'izdan og'izga o'tib, dostonlarda aks etgan.

Dostonlarda jangoldi hukmdorlar o'z qo'shini bilan musiqa sadolari ostida jangga tayyorgarlik ko'radilar yoki urushga chorlov ham ayni tarzda amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Bunda asosan, karnay-surnay hamda dovul kabi musiqa asboblari urush davrida foydalanilganini kuylaydilar. Musiqa asboblarning qo'llanilishida qo'shinning ruhiy holatiga ta'siri hisobga olingan.

Erali va Sherali dostonida urush payti chor tarafdan karnay-surnay tortib, lashkar maydonga chiqib kelgani aks etgan. Harbiy safarbarlik yoki jangga chiqish oldidan karnay-surnay chalinishi bu harakatning nafaqat amaliy, balki ruhiy jihatidan ham tayyorlik darajasini ko'rsatadi.

Alibek va Bolibek dostonida esa baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'li shunday kuylaydi: “Ana endi Shohpo'lat dobilni qoqdi, surnay-karnayni tortdi, qo'lida sarsoz lashkarni jo'natdi. O'zi ham o'tlanmoqchi bo'lib g'amini yeyapti. Olisroqlardagi lashkarni, amir-umarolarni otlansin-otlansin deyapti”. Dostondagi bu o'rinda musiqiy harakatlar safarbarlik jarayonlarida, ya'ni qo'shinni to'plash va urushga tayyorlash bilan bir paytda amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Jang oldidan qo'shinni ruhlantirish, dushmandan qo'rqmasliklari uchun choralarni ko'rishga alohida e'tibor qaratilgani xususida Aristotel o'zining siyosat deb nomlangan kitobida shunday yozgan: “Bundagi sir va hikmat urushda

dushmanni qo'rqitishdir. Chunki baland va daxshatli tovushlarning inson ruhiga daxshatli ta'siri bo'ladi”. Xususan, arablar janglardan oldin shoirlarining qator oldida turib, mardonavor she'rlar bilan askarlar qalbida shodlik uyg'otib, qahramonlarni hayajonga solgan va ular darhol hujumga o'tgan.

Turkiy xalqlar hukmdorlari esa o'z yurishlari uchun dovul, karnay, burg'u singari asbob-uskunalar tayyorlatgan va bular hukmdorlik ramzlaridan biri hisoblangan. Bu holat nafaqat insonlarda, balki hayvonlarda ham namoyon bo'lib, jumladan tuyalar hud'a deb nomlangan ritmik qo'shiq yoki otlar hushtak va qichqiriqlar bilan jo'shqinlashadi. Orkestr musiqa asboblari bilan qo'shin ichida turgan hukmdor atrofida saf tortib turganlar va marshlar chalib, qahramonlarni jonlarini fido qilishga ruhlantirgan.

Jang oldidan harbiy musiqa asboblari orqali askarlarni ruhlantirish, safarbar qilish holati elshunoslik jihatdan Turon xalqlarining harbiy tayyorgarlik marosimlari sifatida namoyon bo'ladi. Nog'ora jangga chaqirish beligisi hisoblansa, karnay-surnay esa harbiylarning ruhlantirish bilan birga hukmdorning chiqishi yoki urush boshlanishini ifodalovchi unsur sifatida baholangan. **Ibn Xaldun yana qayd etadiki:** “Turklar dovulga o'xshagan asboblarga katta ahamiyat beradilar, ularning sonini ko'paytiradilar va unga “kusvot” (*ko's, mehtar*) deb nom berganlar”. Xalq dostonlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, “dovul” so'zi shevada “dobil” deb talaffuz qilingan va shunday qayd etilib, urushning eng asosiy uskunasi sifatida bayon etiladi. “Go'ro'g'li”da bu haqida aniq tasvirlar ko'zga tashlanadi: “Alqissa, andin so'ng har ikki tomondan askar yig'ilib, dobil urilib, otlar surilib, Go'ro'g'li sulton bilan Shohdorchilik askarlarining jangga borayotgan chog'i:

*Avval bir karnay tortdi,
Otlar qoziqqa aylandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Botir yigitlar saylandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Osmon chang bo'b g'uborlandi.
Yana bir karnay tortilganda,
Baravar bari otlandi”.*

Amir Temur va Temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida harbiy yurishlar jarayonida cholg'u asboblari foydalanish masalasi bir necha bor ta'kidlab o'tiladi. 1393-yilda sohibqiron qo'shinlarining Sheroz tomon amalga oshirgan harbiy yurishi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Asarda qayd etilishicha, jang harakatlari boshlanishi bilan yangragan karnay va nog'oralarning qudratli, quloqni larzaga soluvchi ovozlari tog' yuragini yorgan, qal'a ahli nihoyat darajada qo'rqinch va sarosimaga tushib qolgan.

Musiqaning olamni larzaga keltiruvchi kuchi haqida Xoldorxon dostonida shunday bayon qilingan: “Ana endi nima deysiz, Taka-Yovmitning lashkarida qancha karnay, surnay, gijjak, balabon, ko's, nog'ora, g'uburga, nay, qo'biz, jami na'ma-surud bor

edi, birdan qo'yabordi, sado olamni buzdi. Jangir-jungir, qatir-qutur, shatir-shutur, qasir-qusur, vag'ir-shag'ir – birdan jami na'ma-surud bor qo'yabordi. Qrimda Xoldor shoh bilan Qaysar shohning odamlariga davur kayfi uchib ketdi, barining yuragi zir etdi, ko'zi olarib qoldi”. Bu parchada yana bir muhim jihat shuki, ko'plab musiqa asboblarning nomlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu dostonda musiqachilar guruhi bo'lganiga ishora qilinib, ularning faoliyati urush jarayonlari bilan bog'liq holda bayon etilgan.

Xiva xonligi qo'shinida musiqachilardan iborat bo'linma ham mavjud bo'lgan. Bu ixtisoslashgan harbiy sozandalar guruhi xonning saroydan chiqish vaqtini xalqqa ma'lum qilishda, harbiy yurishdan oldin jangchilarni ko'rikdan o'tkazishda, jang vaqtida askarlarni ruhlantirishda, shuningdek turli harbiy harakatlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etgan. Bu bo'linma tarkibida asosan karnaychi, surnaychi, nog'orachilar bo'lgan.

Xo'sh, bu musiqachilarning vazifasi nimalardan iborat bo'lgan? Ular turli musiqa asboblari yordamida qo'shinni jangga chorlar, g'alabalarni musiqa yordamida e'lon qilar, askarlarning ruhiyatini ko'tarishga xizmat qilar edi. Janglarning boshlanishi va uning tugatilishi ham musiqa orqali e'lon qilinib, bu jarayonni zamonaviy signalizatsiyaga to'g'ri keladi, deb aytish mumkin.

Buxoro amirligiga oid ma'lumotlarga ko'ra, sarbozlar va to'pchilar tarkibida harbiy sozandalar ham mavjud bo'lgan. Bo'linmalar kesimida taqsimlangan 14 nafar nog'orachi va 14 nafar naychidan tashqari, sarbozlar qismida yana 2 dona turk nog'orachisi va 4 nafar karnaychi xizmat qilgan; bundan tashqari 6 nafar karnaychi artilleriya bo'linmasi huzurida faoliyat olib borgan. Umuman olganda, qirq nafar harbiy sozanda alohida boshqaruv ostida bo'lib, ular milliy sozandalar boshlig'i – yuzboshi unvoniga ega shaxs ixtiyorida bo'lgan.

Harbiy musiqachilarning musiqa asboblari do'mbira, nog'ora, karnay va surnaylardan iborat bo'lgan. Musiqachilarning kiyimi – boshqalardan ham, askarlarnikidan ham farq qilgan. Bu haqda A. Fedchenko shunday yozadi: “Uchragan barcha askarlar orasida bizni qizil ko'ylak, chopon va boshiga qo'y terisidan tikilgan qora qalpoq kiyib, egari yoniga mis tarelkalarni osib olgan askar hayratga soldi. Keyin bilsak, bu otliq qo'shin musiqachisi ekan”. Qo'shin musiqasi jarangdor va serjiloligi bilan ajralib turgan. Qo'shin musiqachisining kiyim-kechagi, musiqa asboblari va ta'minotiga xon xazinasidan mablag' ajratilgan. Musiqachilar jangni boshlashda, mudofaa va hujum harakatlari, shuningdek jangning yakunlashda alohida o'rin egallagan.

Jangovar to'qnashuvlarda jangning musiqa bilan to'xtatilishi va ikki dushman qo'shinning ajralishi urush madaniyatining bir qismi bo'lib, baxshi dostonlar orqali o'z ijodi orqali namoyon etgan.

Umuman olganda, xalq dostonlari o'zbek xalqining jangovar madaniyati, urushga oid bilimlarini o'zida aks ettiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda urush sahnalarida cholg'u asboblarning qo'llanishi to'g'risida birmuncha ko'proq o'rin egallagan.

Xalq dostonlarida urushni boshlash, yakunlash hamda hukmdorlarning kelish oldi marosimi tarzda musiqadan foydalanilishi maxsus harbiy musiqachilar guruhi mavjudligini tasdiqlaydi. Qo'qon va Xiva xonligi, shuningdek Buxoro amirligida ham maxsus harbiy musiqachilar mavjud bo'lgani hamda ularga alohida e'tibor qaratilgani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Xullas, musiqa ilmi nafaqat san'atda, balki harbiy jarayonlarda ham o'ziga xos o'rin egallab, baxshilar ijodida qayd etilishi xalq og'zaki ijodining manba sifatida ahamiyatini ko'rsatadi.

Muxtorjon TOLIBBOYEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

35 yillik sharaflı yo'l

QUTLUG' BAYRAM ARAFASIDA

Inson va jamiyat hayotida quvonchli sanalar, unutilmas bayramlar ko'p. Biroq ular orasida mazmun-mohiyati, tarixiy ahamiyati va xalqimiz uchun beqiyos qadr-qimmatı bilan alohida o'rin tutadigan sana bor – bu mustaqillik bayrami. Aynan shu kun mamlakatimiz taqdirida tub burilish yasagan, asrlar davom etgan qaramlik zanjirlari uzilgan, xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash yo'liga chiqqan edi. Bu yil ana shu qutlug' sana o'ttiz beshinchi bor nishonlanmoqda. Bu shunchaki sana emas, balki butun bir xalqning tarixi, g'ururi va kelajakka ishonchini mujassam etgan ulkan voqealidir.

Joriy yilgi bayram tadbirlari "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ulug' g'oya asosida o'tkazilayotgani, uning mazmun-mohiyatini yanada chuqurlashtirmoqda.

Qutlug' sana arafasida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining Jizzax viloyati hududiy bo'linmasi hamda Jizzax garnizonida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston – ezgu maqsad, yangi harakat!", "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari!" hamda "Mustaqillik



– 35 yillik sharaflı yo'l" mavzularida o'tkazilayotgan tadbirlarda istiqlol yillarida mamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy armiyani shakllantirish va qo'shinlarni ilg'or texnologiyalarga asoslangan yangi aslahalar bilan ta'minlash borasida erishilgan yutuqlar atroflicha yoritilmoqda.

"Bir Vatan – bir taqdir!", "Yagona xalq, yagona Vatan, yagona maqsad!", "Mustaqil O'zbekiston – g'ururim, iftixorim!" kabi mavzularda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yosh harbiy xizmatchilar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlamoqda. Ayniqsa, "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari doirasida zaxiradagi harbiy xizmatchilar va soha faxriylarining hayotiy tajribalari yoshlar uchun ibrat maktabiga aylanmoqda. Ochiq muloqotlar, adabiy-badiiy kechalar

va suhbatlarda ishtirok etayotgan yoshlar nafaqat o'z iqtidorlarini namoyon etmoqda, balki yurt taqdiriga daxldorlik hissinı yanada teran anglab bormoqda.

Shuningdek, "Ayol qadri ulug'langan yurt" shiori asosida belgilangan chora-tadbirlar doirasida harbiy sohada faoliyat yuritayotgan ayollar hamda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirokida mazmunli tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu esa jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor va ehtiromning amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan "Mustaqillik to'yi" festivali doirasidagi tadbirlar avgust oyiga qadar davom etadi. Shu munosabat bilan ularni yuqori saviyada tashkil etish uchun barcha zarur choralar ko'rilmogda. Bu jarayonda Jamoatchilik kengashi Jizzax viloyati bo'linmasi hamda oila va xotin-qizlar boshqarmasining tashabbuskorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Vatan – bu barchamizni birlashtirib turuvchi muqaddas tushuncha. Uning taqdiriga daxldorlik hissi esa har bir fuqaro qalbida yashashi shart. Shu ma'noda "Bir Vatan – bir taqdir" shiori ostida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, Mudofaa vazirligi



faxriylari hamda Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Ezgulik karvoni" xayriya aksiyalari alohida ahamiyatga ega. Bunday savobli tadbirlar yil davomida muntazam tashkil etilmoqda.

Kino san'ati ham ma'naviy tarbiyaning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Bugungi tinch va farovon hayotimizni, ajdodlar jasoratini tarannum etuvchi milliy filmlar yoshlar qalbida shukronalik va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu maqsadda respublika bo'ylab o'tkazilayotgan "Mustaqillik kinokarvoni" doirasida harbiy qism va muassasalarda kinofilmlar namoyishi tashkil etilmoqda.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda Jamoatchilik kengashi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi, "Nuroni" jamg'armasi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, madaniyat boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, "Jasorat maktabi", "Ochiq eshiklar kuni" kabi tadbirlar doirasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar farzandlari ishtirokida o'tkazilayotgan

"Ona diyor ranglar jilosida" rasmlar tanlovi yosh iste'dodlarni kashf etishda davom etmoqda. An'anaviy "Eng ulug', eng aziz" ko'rik-tanloviga ham qizg'in tayyorgarlik ko'rilmogda. Ushbu tanlov Vatan haqidagi eng sara ijod namunalarini yuzaga chiqarishi bilan ahamiyatlidir.

Kitobxonlikni rivojlantirish orqali jamiyatda ma'rifatli muhitni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga molik. "Kitob aksiyasi" doirasida harbiy



qism va muassasalarda yangi adabiyotlar ko'rgazmalari tashkil etilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shuningdek, avgust – sentabr oylarida yaratiladigan "Vatan" qo'shiqlar to'plamiga "Posboniman muqaddas yurtning" tanlovi g'oliblarining she'rlari kiritilishi rejalashtirilgan. Bu esa badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan harbiy xizmatchilarni yanada rag'batlantirishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning 35 yilligi Jizzax garnizonida ham munosib kutib olinishiga barcha asoslar mavjud. Bugungi tayyorgarlik ishlari, ko'tarinki ruh va tashabbuslar bu ulkan bayramning yuksak saviyada o'tishini ta'minlaydi.

Feruza SAPAROVA,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi Jizzax
viloyati mintaqaviy bo'linmasi
mutaxassisi

Yurtga sadoqat

Qishlog'imizda 101 yoshni qoralab qolgan otaxon bor edi. Qaddi dol, fishlari to'kilgan, soch-soqolini qirov bosgan bu nuroniy yolg'iz o'zi yashagan. Qo'ni-qo'shnilar navbat bilan uning holidan xabar olib turishgan, xonadonidan "mahalla yettiligi", hokimiyat vakillari, tadbirkor-ishbilarmonlarning qadami uzilmagan.

Mahallamizga yangi ko'chib kelgan oilalar, yangi kelindan boshqa hamma uning yashash tarzi, o'tmishi va bugunidan xabardor edi. Otaxon ba'zi kunlari hassasiga tayanib, ko'chaga chiqar, eshigi oldidagi o'rindiqqa o'tirib, ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha o'yg'a botar, ba'zan esa ko'zlari yumuq holatda soatlab o'tirardi.

Qazoyi qadar vaqti yetib, otaxon bu dunyodan ko'z yumdi. U so'nggi yo'lga kuzatildi, ma'raka-marosimlari kengashilgan holda o'tkazildi. Ma'lum vaqt o'tgach, otaxonning uyini qo'shni ayollar tozalab, tartibga soldilar. Yoshgina kelin uy ichidan bir qutichani ko'tarib chiqdi. Undagi sarg'ayib ketgan bir varaqni o'qigan ayollarning barchasi bir

BIR KAFT TUPROQ

ovozdan yig'iga tushdi. Men hovliga kirib borganimda ayollar shu taxlit yig'i-sig'i qilishardi. Meni ko'rib, jimgina qog'ozni uzatishdi. O'qidim-u, vujudimni titroq bosdi. Marhum otaxonning qalbidagi Vatan sog'inchini ta'riflashga til ojiz. U kindik qoni to'kilgan yurt, Vatan qadrini shunday sodda ifodalaganki, buni Vatandan yiroqda bo'lganlarga shunday bita oladi.

"Hozirgina daydi o'q yana bir safdoshimning hayot shamini o'chirdi. U Vatandan olisda, begona yurtda shahid bo'ldi, ko'zlari ochiq ketdi, xoki begona yurtda qoldi..."

Okopda dushman tomon ko'z tikkancha o'tiribman. Birdan qushning chug'urlagan ovozi eshitildi, u xavfni sezmay, chirqillar edi. Men vahima ichida unga qaragancha, nafas olishga qo'rqib turardim. Shu on qush yerga quladi, birgina o'q uning hayotiga nuqta qo'ydi, balki bu qush mening Vatanimdan uchib keldir...

Havo hujumidan o'nlab safdoshlarim halok bo'ldi. Ularni xavfsiz joyga olib chiqib, dafn qildik. Qurolidoshim Vali ham ular qatorida bu hayotdan ko'z yumdi. U menga "Agar sendan oldin o'lsam, iltimos, Vatanim

tuprog'idan bir chimdimini ko'ksimga tashlab qo'y, shunda o'z yurtimda yotgandek xotirjam bo'laman", der edi.

Men urushga ketishda bir xaltacha tomorqamdan tuproq olib, ichki cho'ntagimda joylab olgandim. Uni eng tahlilali paytlarda, uyimni, yaqinlarimni sog'inganimda qo'limga olib, hidlab-hidlab qo'yardim. Vali bundan xabardor edi, uning vasiyatini ado etdim...

Vatanim tuprog'ining har bir zarrasi yurtimdagi tinch, osuda hayot nafari bo'lib, u o'limni yengishiga, mendan nari qilishiga ishonaman. Shu bir kaft tuproq meni sog'omon Vatanimga qaytaradi, albatta!"

Otaxonning bitiklari shu so'zlar bilan yakunlangan. Qarang, Vatan tuprog'i naqadar muqaddas va tabarruk. Ishonch, yurtga mehr, sadoqat, hatto o'limni ham mahv etadi.

O'ktamxon AKBAROVA,
"Dang'ara" gazetasi
bosh muharriri



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



ULUG' ISHLARGA QODIR KUCH

Millatning o'zligini asrovchi muhim omillardan biri ma'naviy ustuvorlikdir. Bir so'z bilan aytganda, millat ma'naviyati – ulug' ishlarga qodir kuch. Mamlakat taraqqiyotida bu muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning ruhiy olamiga ozuqa beruvchi, ong, aql va tafakkurini charxlovchi ma'naviy komillikni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek: "Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak".

Tarixga nazar tashlasak, Vatan ozodligi, millat erkiga raxna solinganda, birinchi bo'lib, ma'naviy komil, ziyoli insonlar yog'iyga qarshi turgan. Yurt ozodligiga munosib qalqon bo'lib, xalqni ortidan ergashtirgan. Jasoratga qodir bu ziyo ahli Vatanni asrash yo'lida qahramonliklar ko'rsatgan. Shu sabab har bir davr, har bir zamonda yoshlarni ma'naviy komil – vatanparvar, sadoqatli va milliy qadriyatlarga e'tiqod ruhida tarbiyalash dolzarb masala bo'lib kelgan.

Ma'naviyat, avvalo, oiladan boshlanadi, oilada shakllanadi. Sir emaski, farzandlar tarbiya borasida ota-onasidan andaza oladi, ularning o'gitiga quloq tutadi. Kattalarga izzat, oila a'zolariga muhabbat, oila sha'nini asrash va albatta, Vatanni sevish, shu yurt farzandi ekanidan faxrlanish, ona tiliga hurmat kabi milliy qadriyatlarimizda millat timsoli mujassam. Ulg'aygan xonadoni, yaqinlarini sevgan bola borki, yurtini sevadi, vatanparvarlik ruhida ulg'ayadi. Qadriyatlarga hurmat ruhida suyagi qotgan o'g'il-qiz tartib va tarbiyada tengdoshlariga o'rnak bo'ladi.

Oilada shakllangan ma'naviy ulg'ayish, ma'naviy tarbiyaning davomi, shubhasizki, ta'lim

dargohlarida davom etadi. O'g'il-qizlarning ma'naviy barkamol ulg'ayishida maktabgacha ta'lim dargohlari, umumta'lim maktablari va oliygohlarning o'rni qay darajada katta ekani ma'lum. Shuning uchun ushbu maqolamizda kelajak avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirishda yetakchi o'rinda turuvchi murabbiylar, o'qituvchi-pedagoglarning ilkidagi mas'uliyat haqida so'z yuritishni lozim topdik.

O'QITUVCHI-PEDAGOGLAR OLDIDAGI BURCH

O'g'il-qizlar ta'lim dargohlarida bilim olish davomida o'zligimizga xos bo'lgan tarbiyaga ega bo'lib borishadi. Oilada shakllangan ma'naviy tarbiya poydevorini mustahkamlashda ustozlarning o'rni beqiyos. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadigan bu tarbiyaga milliy qadriyatimiz asos bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Mashg'ulotlar davomida bolalar ongi, tushunchasi, atrof-muhit haqidagi dunyoqarashi rivojlanib boradi. Yashab turgan zamini – Vatan tushunchasini anglashdek bilimga ega bo'ladi. Davlat ramzlari – gerb, bayroq, madhiyamiz

hamda Konstitutsiyamiz haqida saboq olgan bolajonlarda faxr tuyg'usi uyg'onadi. Ayni damda bog'chalarda tarbiyalanayotgan o'g'il-qizaloqlarning barchasi davlatimiz madhiyasini yoddan bilishiga, shubha yo'q. Vatan timsoli aks etgan bu muazzam qo'shiq yangraganida ular, albatta, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, birgalikda kuylashga harakat qiladi. Gerb va bayrog'imiz haqida dona-dona qilib tushuncha bera oladi. Shuningdek, ona tilimizni sevish va e'zozlash, milliy libos, taomlar, bayramlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi ularni ma'naviy tarbiya egasi bo'lishlariga zamin yaratadi.

Ta'lim dargohida faoliyat yuritgan pedagog sifatida shuni ishonch bilan ayta olamanki, bolalar ustozlarning har bir harakatiga e'tibor qaratadi, ulardan o'rnak olishga intiladi. Shuning uchun o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berishda o'qituvchining shaxsiy sifatлари katta ahamiyatga ega. Kiyinish va muomala madaniyati, odob va axloq me'yorlariga rioya qilish, har qanday vaziyatda o'zini idora etish, o'quvchilarga saboq berish va bilimni baholashda adolat tarozisini birdek ushlab muallimlarning muhim sifatlaridan biridir. Hatto muallimlar ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlariga, ya'ni til qonun-qoidalariga rioya qilishlari shart. Bu ularning ma'naviyatli va ma'rifatli inson sifatida hurmat topishlarida muhim.

O'qituvchilar ajdodlarimiz ma'naviy merosini chuqur egallashi, ta'lim va tarbiya jarayonida uni chiroyli tarzda qo'llay olishi o'quvchi ma'naviyatining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy g'oya ruhida tarbiyalangan yigit-qizlar yurtga sadoqat, ona yurt sha'nini yuksaltirishda oldingi safda bo'lishadi. Bu ezgulikning boshida, albatta, ustozlar turadi.

Ma'rifat fidoyilari bo'lmish o'qituvchi-pedagoglarni ulug' zotlar deya ta'rifiylaymiz. Sahih hadislardan birida "Yer-u ko'kdagi barcha jonzotlar, dengizdagi baliqlar, Yaratgan egam ham

ustoz murabbiyga salovat aytadi" deyilgan. Bu ustozlarga munosib ta'rif. Ular nafaqat o'quvchilarga saboq berishda, balki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ma'naviyat va madaniyat borasida ham komil va kamtarin insonlardir. Biroq nur bor joyda soya bor deganlaridek, bu sohaga adashib kirib qolgan, o'qituvchilik sharafiga munosib bo'lmagan insonlar ham yo'q emas.

Umumta'lim maktablaridan birida bo'lganimda maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bilan bir muammoli masala yuzasidan suhbatlashishimga to'g'ri keldi. Tirnoqlari uzun o'stirilgan, libosi tizzadan yuqorida, muomalasida kibr sezilib turgan o'rinbosar savollarimga istamaygina javob qaytardi. Ishim bitmagach, muammo hal bo'lgunga qadar u bilan qo'l telefoni orqali bog'lanib turishga kelishdik. Taassuflar bo'lsinki, uning shevadagi burama so'zlar bilan, ona tilimizga behurmat tarzda imlo xatolariga e'tibor bermay yozgan so'zlaridan dilim ranjidi. Eng achinarlisi, uning loqayd xatti-harakati o'quvchilarga ta'sir etmay qolmaydi.

O'quvchilarning biri bo'lmasa biri unga ergashadi. "Ana, falonchi ustozimiz mana bunday kiyinadi, telefonda ham qonun-qoidalariga rioya qilmay erkin yozadi. Men ham shunday qilsam, nimasi yomon?" degan tushuncha o'quvchi ongida ildiz otmay qolmaydi. Ma'rifatdan yiroq bu "erkinlik" qay darajada qimmatga tushishini, ma'naviy yetuklik ildiziga bolta urishini tasavvur etavering.

Ma'naviyat – ulug' qadriyat, ulug' ishlarga qodir ezgu amal. Bu jamiyatimizni qamrab olishi lozim. Chunki ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, bir so'z bilan aytganda, davlatning kuch-qudratidir. Tinimsiz o'qish-o'rganish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ila erishiladigan bu ruhiy ozuqani kelajak avlodga singdirish oldimizda turgan kechiktirib bo'lmas mas'uliyatdir. Biz qaysi vazifada, qaysi bir sohada xizmat qilmaylik, bu mas'uliyat barchamiz uchun sharafli burchga aylanmog'i shart!

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



Ma'naviyat
avvalo, oiladan
boshlanadi.



Surat sun'iy
intellekt
yordamida
tayyorlandi

Ma'naviy komil avlod – yurt kelajagi, millat tayanchi!

Millatparvarlar



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Turkistonda JADIDLIK VA milliy uyg'onish davri

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash – Turkistonda jadidlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining asosini tashkil qiladi. Albatta, ushbu jarayonlarda jadidlarimizning o'rni nihoyatda katta. Chunki ular odamlarning turmush tarzini yaxshilash, ayniqsa, siyosiy va madaniy sohalaridagi rivojlanishni tezlashtirish maqsadida aniq g'oyalar atrofida birlashgan. Shuning uchun ham jadidlik va uyg'onish davri dastavval madaniyat, ya'ni uning asosiy belgisi hisoblangan maorifda namoyon bo'ldi.

Aytish kerakki, jadidlar dastlab o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atagan. O'sha davrning ilg'or kishilari, eng avvalo, yurtni taraqqiyotdan orqada qolayotganini anglagan holda, jamiyatni isloh qilish va o'zgartirish maqsadida xayrli tashabbuslarni ilgari surgan.

Aytgancha, milliy uyg'onish birgina adabiyotni qamrab olmadi. Aksincha, bu ijtimoiy turmushning barcha qatlamini o'z ichiga oldi. Hatto bosmachilik nomi bilan "g'alati mashhur" bo'lib tarixga kirgan hodisaning ham mafkurasi milliy uyg'onishga, uning samarasi bo'lmish mustaqillik uchun kurashga kelib bog'lanadi. Milliy uyg'onish yuqorida aytganimizdek,

jadidlik shaklida namoyon bo'ldi va u 20-yillarning o'rtalarigacha davom etdi.

Jadidlar o'z faoliyat yo'lini uch soha yo'nalishi, ya'ni maorif, matbuot, madaniyat sohasida olib bordi. Xo'sh, bu nega kerak edi? Chunki bu sohalar odamlarning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda, taraqqiyot yo'lida birlashtirishda, kelajakni hamjihatlikda qurish uchun harakatlantirishda muhim yo'l edi. Ulardan Ismoil Gaspirinskiy maktab maorifida, chinakam inqilob yasagan "usuli jadid" nomi bilan tarixga kirgan "usuli savtiya"ni yaratib, turkiy xalqlar o'rtasida milliy uyg'onish – Renessans davrini boshlab berdi va jadidlikka asos soldi.

Bilamizki, Ismoil Gaspirinskiy faoliyatida "Tarjimon" gazetasi asosiy o'rinni egallaydi. Xalqni birlikka chorlab, Chor Rossiyasi olib borayotgan siyosatga qarshi chiqar ekan, Gaspirinskiy o'z maqolasida: "Millatning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o'zligini yo'qotish uchun shulardan bittasining buzilishi kifoya", deya ta'kidlagan edi.

Jadidlik harakati haqida so'z borganda, albatta, Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirilgan ishlarni eslamaslik xato bo'ladi. O'zbek dramaturgiyasining asoschisi ma'rifat uchun birgina maktablar faoliyatini yo'lga qo'yish kifoya emasligini qalban anglab, teatr va matbuot sohalarining sirlarini o'rgandi. Shu yo'lni o'zlashtirdi. So'ng-chi? So'ngida u "Padarkush"ni yaratdi. Shu bilan u o'zbek dramachiligining haqiqiy durdonasini maydonga tashladi. Lekin bu bilan nima o'zgardi, dersiz? "Padarkush" xulosasiga ko'ra, jaholat hamda nodonlik ota va bolaning boshiga yetadi. Hirsga berilishning oldini olish uchun farzandlarni o'qitish muhim ekani yuksak mahorat bilan aytiladi. Xalq sergak bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Va, bu, ayni haqiqat edi.

Ha, u davrda jasorat ko'rsatish, bu qadar oson emasdi. Chunki qalblar faqat qo'rquv va iztirob bilan to'lgan, odamlar azob-uqubat ichida hayot kechirardi. Lekin shunday tahlikali vaziyatda ham Behbudiy matbuot sohasida izlanish olib borib, 1913-yilda "Oyna" jurnalini, so'ngra "Nashriyoti Behbudiy" nomli nashriyot faoliyatini yo'lga qo'ydi. Chunki ma'naviy va ma'rifatni aynan ilm, bilim bilan ko'tarish mumkin edi. Kelajak yaratish, unga asos solish, ha, albatta, jasorat ko'rsatishga muhtoj edi.

Darvoqe, Behbudiy bilan bir davrda yashab ijod etgan Abdulla Avloniy ham "Shuhrat" gazetasini chiqara boshlaydi. U "Jamiyati xayriya" fondini ochib, bolalarning bepul o'qishini qisman ta'minlashga erishadi. Qisqa vaqt ichida Avloniyning "Turon" jamiyati maydonga keladi. Jadidlarimiz o'sha davrdagi kamchiliklarini chuqur his etib, jon-jahdlari bilan maorif yoyishga, xalqni bilimli qilishga harakat qila boshlaydi. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi, ushbu hududning tanazzulga yuz tutishi, jahon mamlakatlaridan orqadan qolishi, milliy qadriyatlarining toptalishiga olib keldi. Jadidlar xuddi shunday muammolarni bartaraf etish g'oyalarini ilgari surib, birzum maqsad yo'lidan to'xtamaydi.

Jadidlarning dastlabki faoliyati ma'rifatparvarlikdan boshlangan bo'lsa, keyinchalik milliy ozodlik harakatiga aylanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik – xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik, milliy uyg'onish g'oyalarini o'z ichiga oladi. Ularning yana bir muhim qadami, yoshlarni rivojlangan davlatlarga, xususan Germaniyaga o'qish uchun yuborish, u yerda tahsil olib, yurt, millat uchun xizmat qilish g'oyalarini ilgari surish edi. Va, shunday ham bo'ldi. Millat fidoyilarining sa'y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlar uchun mablag'lar to'plandi. Muammoni bartaraf etish yo'li – ilm edi, bilim edi.

Ha, jadidlar Sharq va G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga qattiq intilgan. Siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqqan. Qalb ozodligi, hurlik uchun kurashgan. Bu yo'lida qanchalik zahmat chekmasin, xalq uchun jonini o'rta qo'ygan. Ha, bu hammani ham birdek o'ylantirgan masala bo'lmasa-da, jadidlar taraqqiyotga qattiq ishongan. Najotni ilmda ko'rgan. Chunki bilimli xalq farovon hayot quradi.

**Polkovnik Jamshid IBRAGIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti siki boshlig'i**

MARDLIKKA ELTUVCHI JASORAT MAKTABI



Bugungi tahlikali va notinch zamonda mamlakatimiz yoshlarini Vatanga muhabbat, sodiqlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, barcha yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori tasdiqlandi va ijroga qaratildi.

Bugungi kunda respublikadagi 208 ta tuman (*shahar*)da bittadan umumiy o'rta ta'lim maktabi negizida bolalarni kichik yoshdan Vatanga sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan "Jasorat maktabi" faoliyati yo'lga qo'yilib, ular kuch tuzilmalariga birlashtirilgan. Shundan **52 ta** "Jasorat maktabi" Mudofaa vazirligi tasarrufidadir.


"Jasorat maktablari"ni tashkil etishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularda harbiy xizmatni o'tashda zarur bo'ladigan dastlabki harbiy va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish, oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun maqsadli tayyorlashdan iborat.

"Jasorat maktablari" umumta'lim maktablari uchun harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida **tayanch maktab** vazifasini bajaradi. Mazkur maktablarga kirish uchun alohida tartib belgilangan bo'lib, bu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-noyabrda 688-son qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan, "Jasorat maktablari"ga o'quvchilarni **saralash beshinchi sinfdan** boshlab amalga oshiriladi.

Jasorat sinflariga o'qishga kirish uchun quyidagi **hujjatlar** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining **rasmiy veb-sayti** (gov.uz/oz/ima) orqali qabul qilinadi:

- o'quvchilarning tegishli o'quv yili natijasiga ko'ra, baholar tabelining umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma;



– o'quvchilarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va ularning ota-onalari (*qonuniy vakili*) biometrik pasport (*identifikatsiyalovchi ID-karta*) ma'lumotlari, bog'lanish uchun mobil telefon raqamlari.

Har yili iyul oyida "Jasorat" sinflariga o'qishga kirish uchun **jismoniy tayyorgarlik va tegishli fanlar bo'yicha test sinovlari** o'tkaziladi.

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovda umumiy o'rta ta'limning 4-sinf uchun mo'ljallangan o'quv dasturi doirasida har bir o'quvchiga 5 tadan jismoniy mashq beriladi.

Test sinovlari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf dasturlariga muvofiq, ona tili va matematika fanlaridan (*mantiqiy savollar kiritilgan*) tashkil etiladi. Jasorat sinflarida o'qish muddati yetti yilni tashkil etib, o'quvchilar kirish imtihonlari natijalariga ko'ra qabul qilinadi.

Ushbu maktablarda **o'quvchilarga**:

- **matematika, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (CHQBT), tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika** fanlari chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi;
- **robototexnika, kelajak o'yinlari, tibbiy tayyorgarlik, huquqiy savodxonlik, milliy sport o'yinlari** kabi to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladi;
- o'quv yili davomida **ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta** harbiy qismlarda amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

"Jasorat" sinflarida o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishda turli zamonaviy shakllar va usullardan, shu jumladan o'qitilayotgan fanlar bo'yicha fakultativ va to'garak mashg'ulotlari hamda o'quvchilarni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash tadbirlaridan foydalaniladi.

"Jasorat" sinflarini a'lo baholar bilan tamomlagan, har bir "Vatan tayanchi" otryadining a'zosi bo'lgan bir nafar o'quvchiga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq, **oliy harbiy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.**

Harbiy qism va muassasalarda tashkil etilgan targ'ibot guruhlar tomonidan o'quvchi-yoshlarda Vatanga sadoqat, uni himoya qilishga mas'uliyat hissini shakllantirish, milliy armiyamizda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning jasorati va matonati, armiyadagi islohotlar, askarlarning xizmat faoliyati haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Targ'ibot guruhlar tomonidan o'quv mavsumi davomida umumta'lim maktablarida "Askar maktubi", "Mardlik", "Shijoat va jasorat" mavzularida kichik sahna ko'rinishlari, muddatli harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari, turli sport musobaqalari, "Chaqmoq trening" sport o'yinlari, videoroliklar namoyishi va boshqa turli ko'rgazmalar tashkil etiladi.

**Podpolkovnik
Hamdam SHAMURATOV,
Mudofaa vazirligi
Chaqiruvga qadar boshlang'ich
tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash
departamenti bo'lim boshlig'i**

Eng yaxshi yosh kitobxon

Harbiy xizmatchining kuch-qudrati nafaqat uning jismoniy tayyorgarligi va jangovar mahorati, balki yuksak tafakkuri, mustahkam dunyoqarashi hamda boy ma'naviyati bilan ham belgilanadi. Zero kitob insonni fikrlashga, mushohada yuritishga, Vatanga sadoqat va xalq oldidagi mas'uliyatni yanada chuqurroq anglashga chorlaydigan bebaho ma'naviyat manbaidir.

KITOB BILAN ulg'aygan askar

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib etish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada mustahkamlashga qaratilgan

“Eng yaxshi yosh kitobxon” tanlovining okrug bosqichi o'tkazildi.

Tanlovda harbiy qismlarda o'tkazilgan saralash bosqichlarida eng yuqori natijalarni qayd etgan, kitobga mehr va mutolaaga sadoqatini amalda namoyon etgan harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Intellektual bellashuv uchta shart asosida o'tkazilib, unda ishtirokchilar o'z bilim va salohiyatini har tomonlama namoyish etdi.

Musobaqa davomida ishtirokchilar o'zbek va jahon adabiyotining nodir durdonalari, buyuk adib va mutafakkirlar ijodi, asarlardagi

qahramonlarning hayotiy qarashlari, ularning inson kamoloti va vatanparvarlik ruhini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek bugungi kunda milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish yo'lidagi ahamiyati yuzasidan berilgan murakkab savollarga puxta va asosli javob berdi. Har bir chiqish kitob mutolaasi inson tafakkurini charxlashi, qalbini ezgulik bilan boyitishi va harbiy xizmatchining ma'naviy qiyofasini yuksaltirishdagi beqiyos o'rmini yana bir bor namoyon etdi.

Tanlov nafaqat bilimlar bellashuvi, balki kitobga muhabbat, ma'rifatga intilish va yuksak ma'naviyat tantanasiga aylandi. Unda qatnashgan har bir harbiy xizmatchi mutolaa orqali erishilgan bilim va hayotiy tajribaning chinakam kuch ekanini o'z chiqishlari bilan isbotladi.

Tadbir yakunida tanlov g'oliblari va faol ishtirokchilar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni nomidan diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchi esa vazirlik bosqichida okrug sharafigi himoya qilish huquqini qo'lga kiritdi.

Yurt himoyachisining qo'lida qurol qanchalik muhim bo'lsa, uning qalbida kitobga bo'lgan muhabbat ham shunchalik beqiyos ahamiyatga ega. Zero ma'rifatli askar – Vatan tayanchi, kitobxon harbiy esa yurt tinchligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatidir.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar harbiy xizmatchilarni bilimli, tafakkuri teran, dunyoqarashi keng va Vatanga cheksiz sadoqat ruhida kamol topgan barkamol shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



Ijtimoiy himoya

INSON MANFAATLARI YO'LIDA

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni qiynayotgan muammolarga amaliy yechim topish, eng muhimi, inson manfaatini ulug'lash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ana shu ezgu tamoyillar amalda o'z ifodasini topayotgan navbatdagi muhim tadbirlardan biri Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning “O'rnak” shaharchasida tashkil etilgan sayyor qabulda yana bir bor namoyon bo'ldi.

Nukus harbiy prokuraturasi hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi hamkorligida o'tkazilgan sayyor qabul harbiy xizmatchilar, faxriylar va ularning oila a'zolari bilan ochiq va samimiy muloqot maydoniga aylandi. Unda fuqarolarni uzoq yillardan buyon o'ylantirib kelayotgan masalalar atroflicha o'rganilib, har

bir murojaat ortida turgan inson taqdiri, uning orzu-intilishlari va qonuniy manfaatlar ustuvor mezon sifatida e'tiborga olindi.

Sayyor qabul davomida uy-joy bilan ta'minlash, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy himoya, bandlik, sog'liqni saqlash, moddiy yordam, imtiyozli kreditlar hamda boshqa ko'plab ijtimoiy-huquqiy masalalar yuzasidan murojaatlar qabul qilindi. Har bir vaziyat chuqur tahlil qilinib, amaldagi qonunchilik talablari asosida fuqarolarga batafsil huquqiy tushuntirishlar berildi.

Ayniqsa, joyida hal etilishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tezkor amaliy choralar ko'rilgani, qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan murojaatlar esa alohida nazoratga olinib, ularning qonuniy va adolatli yechimini ta'minlash yuzasidan mas'ul idoralarga aniq vazifalar yuklatilgani davlat organlari faoliyatida ochiqlik, mas'uliyat va xalq manfaatiga xizmat qilish tamoyillari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyat hamda imtiyozlardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Zero Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiylarning munosib hayot kechirishi, ularning oilalari farovonligini ta'minlash jamiyat taraqqiyoti va davlat qudratining muhim omillaridan biridir.

Bunday sayyor qabullar nafaqat fuqarolar murojaatlariga yechim topish, balki davlat idoralari bilan aholi o'rtasidagi ishonch ko'prigini yanada mustahkamlash, adolat tamoyillarini hayotga chuqur singdirish, inson qadrini ulug'lash va xalq bilan ochiq muloqotni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



YANGI

bilimlar – eshiklar kaliti



Har qanday davlatning qudrati, avvalo, inson omiliga, ayniqsa ma'naviy yetuk, bilimli va ruhiy jihatdan barqaror yoshlarga tayanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, kasb-hunarga yo'naltirish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Bu ezgu maqsadlar Qurolli Kuchlar tizimida ham izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarning harbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularning kasbiy, ma'naviy va psixologik rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotgani bugungi islohotlarning muhim natijasidir.

Harbiy psixolog sifatida kundalik faoliyatimiz davomida shunga amin bo'lamizki, harbiy xizmat yosh inson hayotidagi eng mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Yangi jamoaga moslashish, qat'iy intizom, oiladan uzoqda bo'lish, yuqori mas'uliyat hissi ayrim hollarda ruhiy zo'riqlashlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda askarning kelajakka ishonchi, o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olishi va o'zini foydali faoliyat bilan band qilishi uning psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Qurolli Kuchlar tizimida keng joriy etilgan "Bir askar – bir kasb" tamoyili nafaqat kasb-hunar o'rgatishga, balki harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini mustahkamlashga xizmat qilayotgan samarali psixologik mexanizm hamdir. Chunki inson imkoniyatlarini namoyon eta oladigan, yangi bilimlarni egallaydigan va kelajagini aniq tasavvur qiladigan muhitda o'zini ancha ishonchli his qiladi. Psixologiyada bu holat shaxsning ichki motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Markaziy harbiy okrug Navoiy garnizonidagi harbiy qismda mazkur tamoyil asosida olib borilayotgan ishlar ana shunday ijobiy natijalarni bermokda. Harbiy qism hududida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari askarlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini aniqlash va shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari, kompyuter savodxonligi, xorijiy tillar hamda texnik yo'nalishlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berilayotgani askarlarning tafakkurini kengaytirib, ularda yangi maqsadlarni shakllantirmokda. Psixologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yangi bilimlarni egallayotgan harbiy xizmatchilarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, tashabbuskorlik kuchayadi hamda xizmat faoliyatiga nisbatan mas'uliyat hissi yanada mustahkamlanadi.

Harbiy jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda mazmunli bandlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'sh vaqtning samarali tashkil etilishi turli salbiy fikrlar, ruhiy tushkunlik yoki zerikish holatlarining oldini oladi. Ayniqsa, yosh askarlar uchun foydali mashg'ulotlarga muntazam jalb etilish emotsional barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Chunki inson faoliyati davomida o'z qobiliyatini namoyon qilgan sari o'zining jamoadagi o'rnini his eta boshlaydi.

Harbiy psixologlar tomonidan o'tkazilayotgan individual suhbatlar, psixodagnostik kuzatuvlar va psixologik treninglar davomida ham kasb o'rganayotgan askarlarda ijobiy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ularning muloqot madaniyati rivojlanmoqda, stressli vaziyatlarga bardoshlilik ortmoqda, muammolarga yechim topish ko'nikmalari takomillashmoqda. Eng muhimi, ular kelajak hayotiga nisbatan optimistik qarashni shakllantirmokda.

Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan Monomarkaz bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik ham ushbu maqsadlarning amaliy ifodasidir. Elektrik, payvandlash, santexnika, kompyuter savodxonligi, IT texnologiyalari kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan kasb-hunar kurslari askarlarga amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini bermokda. Tajribali mutaxassislar rahbarligida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar davomida har bir harbiy xizmatchi o'z qiziqishiga mos kasbni chuqur o'rganmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni bilish ham yoshlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan sanaladi. Ingliz tili mashg'ulotlarida qatnashayotgan harbiy xizmatchilar nafaqat til o'rganmoqda, balki dunyoqarashini kengaytirib, yangi axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Psixologiyada yangi tilni o'rganish miyaning kognitiv faoliyatini faollashtirishi, xotira va tafakkurni rivojlantirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Harbiy psixolog faoliyatida motivatsiyani shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan askar intizomli bo'ladi, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajaradi, jamoada sog'lom munosabatlarni shakllantirishga hissa qo'shadi. "Bir askar – bir kasb"

loyihasi aynan mana shu ichki motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qilayotgan samarali tizimdir.

Shuningdek, kasb-hunar mashg'ulotlari askarlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, jamoaviy ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni ham rivojlantirmokda. Guruh bo'lib bajariladigan amaliy mashg'ulotlar davomida o'zaro ishonch, mas'uliyat va hamjihatlik hissi yanada mustahkamlanadi. Bu esa harbiy jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Harbiy xizmat nafaqat Vatanni himoya qilish maktabi, balki hayot maktabidir. Bu davrda yosh insonning xarakteri chiniqadi, dunyoqarashi shakllanadi, kelajakka bo'lgan qarashlari mustahkamlanadi. Agar ushbu jarayon zamonaviy bilimlar, kasb-hunar va psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashsa, uning samarasi yanada yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy garnizonidagi harbiy qismda amalga oshirilayotgan "Bir askar – bir kasb" tamoyili nafaqat malakali mutaxassislarni tayyorlashga, balki ruhiy jihatdan barqaror, o'z kuchiga ishongan, ijtimoiy faol va kelajagini aniq tasavvur qiladigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Harbiy psixolog sifatida ishonch bilan aytish mumkinki, kasb egallagan askar nafaqat xizmat davomida, balki hayotning keyingi bosqichlarida ham mustahkam iroda, yuksak motivatsiya va Vatanga sadoqat tuyg'usi bilan yashaydi.

Zero bilimli, kasb-hunarli va ruhiy barkamol askar Yangi O'zbekistonning ishonchli himoyachisi va ertangi taraqqiyotining tayanchidir.

Kapitan O'tkir ASHUROV,
harbiy qism harbiy psixologi

Mustahkam ruh — YUKSAK MATONAT GAROVI



Intellectual yetuk, strategik fikrlay oladigan, qo'l ostidagilarni samarali boshqaradigan hamda sog'lom axloqiy-psixologik vaziyatni baholashga qodir harbiy kadrlarni tayyorlash bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlashda va ularni hozirgi zamonning professional harbiy mutaxassislari qilib shakllantirishda harbiy psixologiyaning o'rni va roli beqiyos.



Buning uchun, milliy armiyamizda harbiy psixolog lavozimi joriy etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi harbiy xizmatchi va harbiy jamoada psixologik holatni ochib berish, jang va xizmat uchun zarur bo'lgan jangovar mahorat va sifatlarni, shuningdek tinchlik sharoitida, jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchining faoliyati samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarni shakllantirishdan iboratdir.

Tizim tashkil etilgandan buyon, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat burchini o'tab kelayotgan ko'plab harbiy psixologlarning ish faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatidan foydalanib, jurnalistik kuzatuvlarni olib bordim. Kuzatuvlar natijasi har xil bo'lishiga qaramay, harbiy psixologlar Harbiy nizomga qat'iy rioya etishiga, shu bilan birga kasbiy mahoratini sohaga izchil singdirib borishiga guvoh bo'ldim.

Katta leytenant Azamat Olimov ana shunday mutaxassislardan biri. Yosh bo'lishiga qaramay, harakatlarida tajribasi yaqqol ko'rinib turadi. Qisqa vaqt ichida turli qo'shin turlarida xizmat faoliyatini olib bordi. Ilmiy izlandi, sohaga baholi qudrat hissasini qo'shishga ulgurdi. Natijada joriy yilda bo'lib o'tadigan "Eng ilg'or harbiy psixolog" ko'rik-tanlovining Mudofaa vazirligi miqyosida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

U bilan suhbatimiz davomida harbiy psixologga xos bo'lgan qirralarni ozmi-ko'pmi ochib berishga harakat qildik.

- Azamat, ayting-chi, harbiy psixologiya bugungi kun talabimi?

- Harbiy xizmatchilarning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini belgilovchi psixologik omillarni o'rganish borasida ilk ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, buyuk sarkarda va davlat arbobi sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"da ham davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etishda rahbar va amaldorlarning ruhiy sifatlarini e'tirof etganini kuzatish mumkin. Sohibqironning sarkardalarni saralash va lavozimlarga qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik, adolatparvarlik, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosqa qilish fazilatlariga alohida e'tibor bergani haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bu esa Amir Temur o'z faoliyatida hozirgi zamon psixologiyasining ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi,

etnopsixologiya, operativ faoliyat psixologiyasi, harbiy psixologiya va kasb psixodiagnostikasi ta'limotlaridan oqilona foydalanishining guvohi bo'lamiz.

- Harbiy psixolog sifatida qanday shaxsiy amaliyotlardan foydalanyapsiz?

Ustozlardan o'rganganlarim asosida ko'pincha shaxsiy tajribalarimdan foydalanaman. Misol uchun, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatdan voz kechib ketishga qaror qilgan shaxslarning muammolarini o'rganish kerak bo'ladi. Ko'plab harbiylar bilan suhbat o'tkazganimda iqtisodiy yetishmovchiligi borligi, oilasiga yetarlicha vaqt ajrata olmayotgani, sog'lig'i bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelayotganini ta'kidlaydi. Bunday shaxslarda sabr, iroda va shukronalik hissi yetishmayotganini bilib olish qiyin emas. Sabrli bo'lishni, sport bilan muntazam shug'ullanishni, kitob o'qib, o'z bilimlarini oshirishni tavsiya qilaman. Farzandlarini voyaga yetkazib, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishiga tavsiyanoma olish imkoniyati borligini aytib, kasbiga bo'lgan ishonchini oshiraman.

Ayrim muddatli harbiy xizmatchilar harbiy xizmatga kelgan davrida moslashuv (*adaptatsiya*) jarayonida oxirigacha xizmat qilishga ko'zi yetmay, uyiga ketish fikri paydo bo'lib qoladi. Doimiy yashash hududiga qaytish istagi kuchayadi. Bu holat o'zimizda ham kuzatilgani yodimga tushadi. Shunday vaziyatlarda psixologik korreksiya jarayonini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ayrim holatlarda harbiy xavfsizlik javobgarligi va harbiy xizmatning qonun-qoidalar va yuz bergan voqea o'rtasida nomutanosiblik kuzatilishi mumkin. Nima bo'lganda ham, harbiy xizmatchining ruhiy holatini barqaror bo'lishi muhimdir. Muddatli harbiy xizmatchilarning ota-onalari bilan doimiy aloqada bo'lishi, xavotirni kamaytirish, yigitlik burchini o'tayotganliklarini ko'rish, operativ tarzda jangovar shayligini ta'minlash maqsadida, ularni videomuloqot orqali gaplashtirish va rasmlarini ko'rsatish hamda "sms"lar yozishdan foydalanishni yo'lga qo'ydim. Hozirgi davrda pochta xizmatidan ko'ra, bunday metodik usuldan foydalanish orqali askarning ruhiy holatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu bilan biz vatanparvarlik targ'ibotini amalga oshiramiz. Chunki askarning ota-onasi farzandini sog'lom,

xursand ko'rganidan keyin yaqin qarindoshlariga, qo'shnilariga farzandi to'g'risida aytib beradi. O'g'lini tinch yurtida xizmat qilayotganidan faxrlanadi.

- Harbiy xizmatchilarning kunlik odatiy va jangovar psixologik mashg'ulotlar soati qanday belgilanadi?

- Odatiy va jangovar psixologik mashg'ulotlar soati aniq belgilanmagan. Vaziyatni "prognoz" qilamiz. Chunki harbiy xizmatchiga har doim psixologik yordam kerak bo'lishi mumkin. Sababi har kuni shaxsiy tarkib bilan ma'naviy-ma'rifiy va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida kuzatish metodidan foydalaniladi hamda jamoadan ajralgan shaxs bilan yakka tartibda (*individual*) suhbat qilinadi va o'ziga past baho berayotgan bo'lsa, uning harakatlariga nisbatan ishonchi oshiriladi. Harbiy xizmatchilarni ruhiy bosimlardan chiqarish va reabilitatsiya ishlari tashkillashtirib boriladi.

- Harbiy oilalar xonadonlariga tashriflar boisi muammolar yechimi, yillik yoki oylik tashriflar soni?

- Harbiy oilalar xonadonlariga tashriflar boisi shundan iboratki, ularni qiynayotgan savollariga qism komandiri orqali javob berish, yashash va turmush sharoitlarini, oilasidagi muhitni o'rganishdan iborat. Albatta, muammo va kamchiliklar chuqur o'rganilib, harbiy qism komandiriga taklif beriladi. Harbiy xizmatchining turmush o'rtog'i yoki farzandi kasallikka chalingan bo'lsa, davolanish muassasalariga yo'llanma olib beriladi. Moddiy tomondan qiyinchilik bo'lsa, muammosi hal etiladi, yakka o'g'il va ota-onasi nafaqada bo'lsa, xizmat joyini ko'chirishga yordam ko'rsatiladi. Harbiy xizmatchilarning doimiy yashash xonadonlariga oy davomida 5-6 marotaba, yil davomida 60-65 martagacha tashrif amalga oshirilib, ularning muammo va takliflari hamda yashash sharoitlari o'rganiladi. Iшонch bilan aytamanki, harbiy xizmatchining oilasi tinch bo'lsa, xizmatida halovat, ruhiyatida barqarorlik kuchayadi.

- Harbiy qismga tashrif buyuruvchi yoshlar, ota-onalar bilan o'tkaziladigan psixologik mashg'ulotlar nima maqsadga yo'naltirilgan?

- Oy davomida harbiy qismga tashrif buyuruvchi 200-300 dan ortiq yosh bilan psixologik mashg'ulotlar o'tkazilishidan maqsad, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va zamonaviy armiyamizning katta kuchga qodir ekanini ongiga singdirish, kelajakda mard va jasur yoshlarni har tomonlama dovyurak qilib shakllantirishdan iborat. **Harbiy qismga tashrif buyuruvchi ota-onalar bilan psixologik mashg'ulotlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:**

Harbiy xizmatchining ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash - ota-onalarga farzandining harbiy xizmat davridagi psixologik xususiyatlari haqida ma'lumot berish va uni to'g'ri qo'llab-quvvatlash usullarini tushuntirish.

Oila va harbiy qism o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash - ota-onalar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, ularning savollariga javob berish va o'zaro ishonchni oshirish.

Moslashuv jarayonini yengillashtirish - harbiy xizmatning dastlabki bosqichlarida uchraydigan ruhiy va hissiy qiyinchiliklar haqida ota-onalarni xabardor qilish hamda ularga amaliy tavsiyalar berish.

Stress va xavotirni kamaytirish - ota-onalarda farzandining harbiy xizmatiga oid ortiqcha xavotir va noto'g'ri tasavvurlarni kamaytirish.

Ma'naviy-ruhiy tarbiyani kuchaytirish - vatanparvarlik, mas'uliyat, intizom va harbiy burchning ahamiyati haqida tushunchalarni mustahkamlash.

Muammolarni erta aniqlash - ota-onalardan olingan ma'lumotlar orqali harbiy xizmatchining ruhiy holati yoki oilaviy muammolarini o'z vaqtida aniqlash va zarur psixologik yordam ko'rsatish.

Sog'lom oilaviy munosabatlarni rivojlantirish - ota-onalarga farzandi bilan samarali muloqot qilish, uni ruhlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berish.

Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadi - harbiy xizmatchining psixologik barqarorligini ta'minlash, oila va harbiy qism o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish hamda harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o'tash uchun qulay ma'naviy-psixologik muhit yaratishdan iborat.

- Ish faoliyatingiz davomidagi duch kelgan eng murakkab psixologik vaziyat?

- Ish faoliyatim davomida duch kelgan eng murakkab psixologik vaziyatlar ko'proq muddatli harbiy xizmatchilar bilan sodir bo'lmoqda. Psixologiyaning o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Barcha tushunchalar abstrakt, ya'ni mavhumlik. Yoningizda turgan sog'lom harbiy xizmatchining ruhiyatida bir necha daqiqadan so'ng negativ hodisalar sodir bo'la boshlaydi. O'zini yo'qotib qo'yadi, fobiyalar boshlanadi. Depressiya kuchayib, ko'ziga har xil narsalar ko'rina (*gallyutsinatsiya*) boshlaydi. Bor narsani noto'g'ri idrok qilish (*illyuziya*) kabi hodisalar buning misoli bo'la oladi.

- Harbiy xizmatchilar faoliyatida yoki oilasida deyarli yechib bo'lmaydigan psixologik holat uchrab turadimi?

- Albatta, uchrab turadi. Kasbiy faoliyatimda bunday vaziyatlarga bir necha marta to'qnash kelganman va har qanday holatni shaxsiy muammoyimdek hal etishga o'rganaganman. Nima bo'lishidan qat'i nazar, ularning har biriga ijobiy yechim topishga harakat qilaman. Insonlar psixolog yordamiga ishonch bildirib kelibdimi, muammolarga yechim topish ularning burchi. Shu jumladan, mening ham. Hal etib bo'lmaydigan muammolar ko'pincha oilaviy kelishmovchiliklar natijasida paydo bo'lishi tajribamda kuzatildi. Harbiy oilaning ishiga uchinchi, to'rtinchi va hokazo shaxslarning aralashuvi vaziyatni chigallashtirgandi. Yana bir vaziyatda harbiy xizmatchida gallyutsinatsiya holati ro'y berdi. Voqeani chuqur o'rgandim va mijozim bilan dildan suhbatlashish zarurligini anglab yetdim. Harbiy xizmatchining ko'ziga har xil narsalar ko'rinsa, bu jarayon salbiy hodisalarga olib borayotgan bo'lsa, darhol psixiatrqa murojaat qilish kerakligini bildirdim. Qo'llanilgan usullar samarali yakunlanib, harbiy xizmatchilarning muammosi ijobiy hal etildi. Har ikki holatda ham, harbiycha psixologik tamoyillarga amal qilindi.

- Demak, harbiy psixologiya - bu...

- Dunyoning eng qudratli armiyalari reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Demak, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari, jangovar barqarorlik ta'minlovchi psixologik komponentlari va xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

- Samimiy suhbatigiz uchun rahmat.

**"Vatanparvar muxbiri
Asror RO'ZIBOYEV suhbatlashdi.**

Vatan ishqiqi jo'sh urgan yuraklar



Muddatli harbiy xizmatchi,
oddiy askar

Jahongir Haydarov




Muddatli harbiy xizmatchi,
oddiy askar

Sardor Adiljonov



Muddatli harbiy xizmatchi,
oddiy askar

Timur Oltiboyev



Muddatli harbiy xizmatchi,
oddiy askar

Murod Xolmurodov



Muddatli harbiy xizmatchi,
oddiy askar

Muhammadali Masharipov

Zamonamiz yoshlariga boqib, qallda havas tug'yon uradi. Bugun ular shiddat bilan odimlayotgan davrning har bir jabhasida ilg'or, har bir sohasida peshqadam. Biri sport maydonlarida yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan bo'lsa, yana biri ilm-fan olimpiadalarida o'zbek intellektual salohiyatini namoyish etmoqda.

Quvonarlisi, milliy armiyamiz saflari ham ana shunday ilmga tashna, qalbi Vatan ishqiqi bilan yashovchi, hayot sinovlarida ilk yutuqlarini qo'lga kiritgan o'g'lonlar bilan to'lib borayotgani qalbimizni cheksiz g'ururga to'ldirmoqda. So'zlarimiz oniy tuyg'u emas, balki tirik haqiqat ekanini isboti o'laroq, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining o'quv jarayonini ta'minlash vazodi muddatli harbiy xizmatchilari bilan yaqindan tanishtirgimiz keldi.

TAQDIR SINOVIDA TOBLANGAN IRODA

– Men Jizzax viloyatining Armasoy tumanida tug'ilganman, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Jahongir Haydarov. – O'tgan yili katta umidlar bilan oliy ta'lim muassasasiga imtihon topshirgandim, biroq omad kulib boqmadim – “yiqildim”. Bu hayotimdagi ilk muvaffaqiyatsizlik, ilk jiddiy zarba edi. Ammo undan to'g'ri va qat'iy xulosa chiqara oldim: endi bola emasman, har bir kunim ertangi kunim uchun mustahkam poydevor bo'lishi shart. Shu asnoda, qalbmida Vatanga xizmat qilish, er yigitlik maktabini o'tash istagi alanga oldi. Akalarim ham armiya saflarida toblanib, hayotda o'z yo'lini topgan insonlardir, men ham ularning izidan ketishni ixtiyor etdim. Qarang, bugun biz kabi yoshlar uchun davlatimiz rahbari tomonidan keng imkoniyatlar eshigi ochib qo'yildi. Harbiy xizmat davomida oliy ta'limga tayyorgarlik ko'rish, hujjat topshirish imkoniyati, ayniqsa talabalik baxtiga muvassar bo'lganlar uchun masofaviy ta'lim tizimining joriy etilgani biz uchun haqiqiy quvonchli tufha bo'ldi.

Fikrlari teran, nigohlari qat'iyatli Jahongirning eng katta orzusi – adolat posboni, ya'ni prokuror bo'lish. Ayni paytda uning ingliz va tarix fanlaridan milliy sertifikatlari bor. Ingliz va rus tillarida bemalol mulqot darajasida so'zlasha oladi.

Maqsadlari ulkan bu askarga oq yo'l tilab, navbatdagi qahramonimizni suhbatga chorladik.

CHIZGILARDA AKS ETGAN HARBIY SALOBAT

– Bobom va tog'am tumanimizning mahalliy rassomlaridan, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Sardor Adiljonov. – Bolaligimdan mo'yqalamga oshnoman, rasm chizishni yaxshi ko'raman. Kichikligimda onajonimdan eshitgan sehrli ertaklarni doim oq qog'ozga tushirishga intilardim. To'g'ri, kelajakda professional rassom bo'lishni xayolimga ham keltirmaganman, lekin ranglar va chizgilar orqali ruhim osoyishtalik topishini his qilardim. Hozirda vzvodning devoriy gazetasi “dizayneri”man. Armiya meni yangi qirralarimni ochib, qaytadan kashf etmoqda, desam, mubolag'a bo'lmaydi. “Yigit kishiga qirq hunar oz” deganlaridek, xizmatga qadar avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish mutaxassisligi bo'yicha texnikumni tamomlagandim, “Vatanparvar” tashkilotida haydovchilik sirlarini o'rgandim. Xizmatdagi imkoniyatlar doirasida axborot texnologiyalari yo'nalishidagi qisqa muddatli kurslarda yangi bilimlarni o'zlashtirayapman. Bugunning zamonaviy yoshi nafaqat jismonan, balki raqamli texnologiyalar bobida ham yetuk bo'lishi, innovatsiyalar bilan “do'stlashishi” shart. Men ham bu yerda nazariy bilimlarimni mustahkamlash bilan birga, maqsadli mobil ilovalar yaratishni o'rgandim. Ishonchim komilki, bu bilimlar kelgusi hayotimda, albatta asqatadi.

Ko'zida umid cho'g'i yongan, har bir so'zida o'ziga bo'lgan yuksak ishonch sezilib turgan Sardor chin ma'noda yigitlarning sardori ekan. Uning muqaddas tuproq, ona yurt haqidagi mulohazalari ma'naviyati teran, qalbi otashin vatanparvar yigit ekanini ko'rsatib turardi.

ARMIYA – HAYOT MAKTABI

– Menimcha, har bir yigit umri davomida harbiy xizmat maktabini ko'rishi, uning hayotiy saboqlaridan bahramand bo'lishi kerak. Chunki armiya chinakam hayot maktabidir, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Timur Oltiboyev. – Ilgari ko'p narsani tasodifga yoki omadga yo'yardim, “bo'laveradi-da” deb loqayd qaragan paytlarim ham bo'lgan. Ammo bu yerda angladimki, inson atrofdagilardan mas'uliyat talab qilishdan avval eng, birinchi navbatda, o'z shaxsi oldidagi mas'uliyatini yuksaltirishi lozim ekan. Dunyoni cheksiz bir ummon deb tasavvur qilsak, unda faqat chaqqonlik, tezkorlik va to'xtab qolmaydigan doimiy harakat bilangina ko'zlangan maqsad qirg'og'iga erishish mumkinligini men aynan harbiy saflarda anglab yetdim. Ha, armiya mening ichki dunyomni tubdan o'zgartirmoqda. Xizmatga qadar psixologik kitoblarni ko'p o'qirdim. Hozir xizmatdosh do'stlarim bilan bo'ladigan samimiy gurunglarda, o'sha mutolaa qilgan kitoblarni nafaqat menga, balki safdoshlarimga ham ma'naviy dalda sifatida amaliy yordam bermoqda.

Timur bilan ham kelajak rejalari haqida gaplasharkanmiz, yigitlik qalbida ungan orzu kurtaklarining naqadar go'zalligiga guvoh bo'ldik. Uning yaqin o'n yillik istiqboldagi rejalari aniq va tizimli. Eng bosh maqsadi esa jonajon Vatanga sadoqat va halollik bilan xizmat qilish.

AJDODLAR RUHI VA KITOBXONLIK JOZIBASI

– Toshkent xalqaro universitetining yurisprudensiya yo'nalishida sirtqi ta'lim olaman, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Murod Xolmurodov. – Bolaligimdan televideniye orqali harbiylar hayotidan so'zlaydigan ko'rsatuvlarni tomosha qilganimda, yuragimda havas tuyg'ulari mavj urardi. Mana, bugun o'sha men orzu qilgan harbiy libos egnimda. Bu harbiy hayotning fayzini, tartib-intizomini so'z bilan ta'riflash qiyin, buni his qilish kerak. Biz uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Xizmatdan bo'sh vaqtlarimni asosan kitob mutolaa-siga bag'ishlayapman. Yaqinda Ibn Xaldunning “Muqaddima” nomli mashhur asarini o'qib tugatdim. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, jamiyat va axloq qonuniyatlari haqida so'z yurituvchi buyuk asar ekan. Haqiqiy ma'naviy xazina! Askarlik kiyimini kiyib, Buxorodan Toshkentga otlanarkanman, vokzalda otamning aytgan gaplari hali ham

qulog'im ostida jaranglaydi: “O'g'lim, bir yillik xizmat ko'z ochib yumguncha o'tib ketadi. Ammo shu vaqt ichida ko'nglingga tugganlaring, o'rgangan saboqlaring butun bir umringga asqatadi. Eng muhimi, sen bu yerda jamoa bo'lib ishlashni, birlik va ahillik kuchini o'rganasan”. Otam haq ekan, bugun biz bu yerda bitta oiladek, bitta ulug' g'oya – yurt tinchligi yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib xizmat qilyapmiz.

Murodning safdoshi, ruhan va fikran unga yelkadosh bo'lgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Muhammadali Masharipov ham kitobxonlik madaniyati yuqori bo'lgan, adabiyotni dildan suyg'an yigitlardan:

– Men jahon va o'zbek adabiyoti durdonalarini sevib o'qiymen, – deydi Muhammadali. – Bilasizmi, mening eng katta orzularimdan biri – ulug' adibimiz O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari asosida katta badiiy film olinishi va u o'zbek onasining buyuk siymosini butun dunyoga tanitishdir. Adibning sodda, ammo qalb to'ridan chiqqan hayotiy asarlari insonni faqat yaxshilikka, mehr-oqibatga boshlaydi. Bu yerda xizmatdan bo'sh vaqtlarimda boy kutubxonamizdan unumli foydalanib, mutolaa qilyapman, ayni paytda sport bilan ham muntazam shug'ullanyapman. Harbiy xizmatdagi har bir kunimni unumli o'tkazish – eng oliy maqsadim.

Muhammadali juda kamtar, ammo ichki dunyosi behad boy yigit. Boks sirlarini puxta egallagan Muhammadali chempionlikka nomzod bo'lib, respublika tanlovlarida faxrli o'rinnarni qo'lga kiritgan vzvodning eng namunali askarlaridan biridir. Qolaversa, harbiy qismda oshpazlik mahoratida ham unga teng keladigani yo'q.

Yozning qoq chillasida, quyosh tafti zaminni kuydirgan bir pallada kechgan suhbatimiz chin ma'noda olovli, qizg'in va mazmunli bo'ldi. Yillar o'tgani sayin zamon shiddati, yurtimizda yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlar yoshlarimizning dunyoqarashini nechog'li yuksaltirayotganiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Bugun biz ko'rgan askarlar shunchaki xizmat muddatini o'tayotgan yigitlar emas, balki harbiy-vatanparvarlik tuyg'usi qoniga singgan, davr talabiga javob bera oladigan yangi avlod vakillaridir. Zero safdagi bitta namunali askar o'nta safdoshiga ibrat ko'zgusi bo'la oladi.

Shohista ABDURAHMONOVA

YARIM YIL SARHISOBI



Qo'shinlarda xizmatni tashkil etish katta mas'uliyat demakdir. Chunki bunda erishilgan har bir yutuq yoki kamchilik ortida yurt xavfsizligi turadi. Shu bois yil davomida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish nafaqat natijalarni baholash, balki kelgusi vazifalarni aniq belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondoni boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Toshkent, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarida joylashgan harbiy qismlarda o'rganishlar olib borildi. Joylardagi haqiqiy holat bevosita ko'zdan kechirilib, harbiy qismlarning jangovar shayligi, xizmatni tashkil etish darajasi, shaxsiy tarkibning tayyorgarligi hamda harbiy intizom holati har tomonlama tahlil qilindi.

O'rganishlar jarayonida jangovar xizmatni tashkil etish, qo'riqlanayotgan obyektlar xavfsizligini ta'minlash, navbatchilik xizmatini olib borish sifati, harbiy xizmatchilarning kasbiy va amaliy ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratildi. Mashg'ulotlar samaradorligi, nazariya va amaliyot uyg'unligi, jismoniy hamda ruhiy tayyorgarlik darajasi ham baholandi.

Yig'ilishlarda harbiy qism komandirlarining hisobotlari tinglanib, jangovar tayyorgarlik, intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda moddiy-texnik ta'minot holati tanqidiy tahlil qilindi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berilib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ya'ni yotoqxona, oshxona, tibbiy xizmat, sport va madaniy dam olish maskanlari holati o'rganildi. Xizmatchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ma'naviy-ruhiy holatini yuksaltirish borasidagi ishlar ijobiy baholandi.

O'rganishlar davomida "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham alohida ko'rib chiqildi. Muddatli harbiy xizmatchilarni kasb-hunarga o'qitish, ularning kelgusida munosib o'rin egallashi uchun zarur bilim va ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi ishlar tahlil qilindi.

Harbiy qismlarda tashkil etilgan qo'mondon va askarlar uchrashuvlari ochiq va samimiy ruhda o'tdi. Unda xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan erkin fikr bildirib, qo'mondondan asosli javoblar oldi. Yoshlarga sadoqat, intizom va mas'uliyat haqida muhim tavsiyalar berildi.

Yakuniy yig'ilishlarda yarim yillik faoliyat yuzasidan xulosalar chiqarilib, qo'shinlarning jangovar shayligini yanada oshirish, intizomni mustahkamlash, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish hamda xizmat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Bu kabi tahlil va o'rganishlar qo'shinlar faoliyatini yanada takomillashtirish, harbiy qismlarning salohiyatini mustahkamlash hamda shaxsiy tarkibning Vatanga sadoqatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika

Giyohvandlikka qarshi MUROSASIZ KURASH



Giyohvandlik – inson salomatligi, ongi va kelajagiga jiddiy tahdid soluvchi illat. Ayniqsa, harbiy jamoalarda bunday xavflarga qarshi murosasiz kurashish, xizmatchilarni zararli odatlardan asrash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shu maqsadda Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qismda "Giyohvandlikning ilk belgilari, uni aniqlash va tezkor profilaktikasi" mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Unda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi narkologiya xizmati bo'yicha Toshkent shahri filiali shifokorlari hamda Toshkent harbiy prokuraturasi xodimlari ishtirok etdi.

Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan giyohvandlikning dastlabki belgilari, uning inson

salomatligi, ruhiy holati va ijtimoiy hayotga ko'rsatadigan salbiy ta'siri haqida atroficha ma'lumot berildi. Shuningdek, giyohvandlikka moyillikni barvaqt aniqlash va uning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirildi. Shu asnoda, ishtirokchilarga zararli odatlardan voz kechish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, jismoniy va ma'naviy barkamollikni mustahkamlash muhimligi alohida ta'kidlandi.

Toshkent harbiy prokuraturasi vakillari esa giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari, harbiy xizmatchilarning qonunlarga rioya etishi hamda harbiy intizomni mustahkamlash masalalari yuzasidan tushuntirishlar berdi.

Suhbat davomida harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javoblar oldi, fikr va mulohazalar almashildi.

Asosiysi, bunday profilaktik tadbirlar harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni mustahkamlash, xizmatchilarni turli zararli illatlardan asrash hamda ularning huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Harbiy-vatanparvarlik kuni

INTIZOMI VA BEG'UBOR KULGI

birlashuvi

Buloqboshidagi "Shifokorlar" bolalar oromgohida unutilmas harbiy-vatanparvarlik kuni tashkil etildi.

Yoz – bolajonlarning eng sevimli, orziqib kutiladigan fasli. Bu davrda ularning har bir kuni sarguzashtlarga, yangi taassurotlarga boy bo'lishi lozim. Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, sadoqat va mardlik tuyg'ularini bolalikdanoq shakllantirish borasida belgilab berilgan vazifalar bugun joylarda amaliy ifodasini topmoqda.

Ta'kidlash joizki, yurtimiz sarhadlarini tun-u kun, jazirama-yu qahratonda hushyorlik bilan qo'riqlayotgan jasur harbiylarimizning mashaqqatli xizmatlarini munosib qadrlash, ularni va oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi islohotlar doirasida ularning farzandlarini yozgi ta'til davrida sog'lomlashtirish maskanlariga imtiyozli yo'llanmalar asosida qabul qilinishi tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. O'z xizmat burchini sadoqat bilan bajarayotgan Vatan posbonlarining o'g'il-qizlari davlatimizning ana shunday yuksak imtiyozlaridan foydalangan holda hech qanday g'am-tashvishsiz, xavfsiz va shinam sharoitlarda maroqli dam olishmoqda. Bu kabi ijtimoiy g'amxo'rlik chegarachilarimizning jangovar shayligini va ruhiy quvvatini oshirishda, ularning o'z oilasidan ko'ngli to'q bo'lib, xizmatni xotirjam o'tashlarida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Andijon viloyatining so'lim go'shalaridan biri – Buloqboshi tumanida joylashgan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohida o'zgacha shukuh, bayramona kayfiyat hukm surdi. Maskanda dam olayotgan o'g'il-qizlarning ta'til kunlarini mazmunli tashkil etish, eng muhimi, ularning mitti qalblarida ona Vatanga muhabbat, harbiy kasbga hurmat tuyg'ularini yanada mustahkamlash maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari bilan hamkorlikda oromgohda "Harbiy-vatanparvarlik kuni" tadbiri tashkil etildi.

Ertalabdan oromgoh hududiga harbiy texnika va maxsus transport vositalarining kirib kelishi bolajonlarning hayrat va quvonchiga sabab bo'ldi. Harbiy libosdagi mard va jasur chegarachilarimizni o'g'il-qizlar gulduros olqishlar, vatanparvarlik ruhida she'r va qo'shiqlar bilan tantanali ravishda kutib olishdi. Oromgoh maydonida yangragan harbiy kuylar va saf qo'shiqlari yoshlarning qalbidagi jangovar ruhni uyg'otib yuborgandek bo'ldi.

Tadbirning ochilish qismida so'z olganlar yurt tinchligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashda harbiy xizmatchilarning o'rni beqiyos ekanini,



bugungi ko'rgazma va muloqotlar kelajakda mana shu bolalar orasidan mard va sadoqatli yurt himoyachilari yetishib chiqishiga mustahkam poydevor bo'lishini ta'kidladi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilar va bolajonlar o'rtasida chinakam samimiy va jonli muloqot tashkil etildi. Maskanga tashrif buyurgan ofitser va serjantlar bolalarga shonli va mas'uliyatli chegara xizmati, ona yurt sarhadlarini qo'riqlashning o'ziga xos sirlari, tun-u kun ko'rsatilayotgan hushyorlik va jasorat namunalari haqida qiziqarli voqealarni so'zlab berishdi. Vatanni himoya qilish har bir o'g'lon uchun muqaddas burch ekani haqidagi jo'shqin hikoyalar bolalarda juda katta taassurot qoldirdi.

Ushbu jonli muloqot yoshlarning qalbidagi mardlik uchqunlarini yoqib, oromgohda dam olayotgan o'g'il-qizlar harbiylarning hayoti va faoliyatiga havas bilan qarab, kelajakda chegarachi bo'lish niyati borligini g'urur bilan bildirishdi. Ayniqsa, harbiy intizom va yurt himoyachisi degan yuksak nom yosh avlod qalbidagi kelajak sari yangi va yorqin maqsadlarni shakllantirdi.

Dasturning eng jozibador va kutilgan qismi – zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar ko'rgazmasi bo'ldi. Ko'rgazma maydonida yurtimiz sarhadlarini qo'riqlashda foydalanilayotgan eng so'nggi rusumdagi jangovar qurollar, aloqa vositalari va maxsus texnikalar joylashtirildi.

Tafsilotlarga qiziquvchan bolajonlar har bir qurolning imkoniyatlari, otish uzoqligi va og'irligi haqida mutaxassislarga tinimsiz savollar berishdi. Harbiy xizmatchilar har bir bolaga qurol-aslahalarni qanday ishlatish, chegara xizmati jarayonida ularning ahamiyati qanday ekanini sodda tilda tushuntirib berishdi.

Tadbirning hayajonli lahzalari davraga mahoratli kinologlar va ularning sodiq hamrohlari – xizmat itlari kirib kelganda yanada yuqori nuqtaga chiqdi. Chegara qo'shinlarining maxsus o'rgatilgan itlari o'z sohiblarining har bir buyrug'ini so'zsiz va qat'iy bajarishi bilan barchani lol qoldirdi. Namoyish davomida xizmat itlarining yashirilgan shubhali buyumlarni birzumda topishi, baland to'siqlardan bemalol sakrab o'tishi hamda eng muhimi – chegarani buzib kirgan shartli dushman ustiga shiddat bilan tashlanib, uni bir necha soniyada zararsizlantirishi bolalarning olqishlariga sabab bo'ldi.

Tadbir nafaqat harbiy chiqishlar, balki intellektual bellashuvlar bilan ham boyitildi. Jumladan, yosh shaxmatchi va shashkachilar o'rtasida musobaqa tashkil etildi. Harbiy intizom va strategik fikrlash ruhida ilhomlangan bolalar har bir yurishni puxta o'ylab, xuddi jang maydonidagi sarkardalar kabi donolik bilan harakat qilishdi. Bu musobaqa o'g'il-qizlarning mantiqiy fikrlashini charxlash bilan birga, ularda do'stona raqobat muhitini ham shakllantirdi.

Oromgohda yozgi ta'tilini maroqli va mazmunli o'tkazayotgan, musobaqa va ko'rgazmalarda faol ishtirok etgan yoshlardan biri Bobur Sobirov tadbir xususida o'zining cheksiz hayajonini shunday ifodaladi: – Bugungi harbiy-vatanparvarlik kuni hayotimdagi eng unutilmas kunlardan biri bo'ldi! Chegarachi akalarimizning jasorati va liboslari menga juda yoqadi. Bugun bizga qurol-yarog'lar va harbiy texnikalarni yaqindan ko'rsatishdi, ularning xususiyatlarini aytib berishdi. Shuningdek, do'stlarimiz bilan shaxmat va shashka musobaqalarida qatnashib, maza qildik. Men bugun bir narsani qat'iy maqsad qildim: ulg'aysam, albatta, mard kinolog yoki chegarachi askar bo'laman va Vatanimiz sarhadlarini ko'z qorachig'imdek himoya qilaman!

Buloqboshi tumanidagi bolalar oromgohida o'tkazilgan ushbu keng ko'lamli vatanparvarlik tadbiri shunchaki bayram emas, balki yosh avlod qalbiga milliy g'oya va yurtga sadoqat urug'ini ekishga xizmat qilgan chinakam ma'naviyat darsi bo'ldi.

Zero bugun qurol-yarog'larni hayrat bilan ushlab ko'rgan, davlatning g'amxo'rligini his qilib, vatanparvarlik ruhida oziqlangan beg'ubor bolalar ertaga yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlaydigan haqiqiy mard o'g'lonlar, Vatan qalqonlari bo'lib voyaga yetadi.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Chegara qo'shinlari

Sana

SHARAFLI YO'L

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qism tashkil etilgan kun munosabati bilan tantanali tadbir o'tkazildi. Unda okrug mas'ul ofitserlari, faxriylar, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.



Marosimda so'zga chiqqanlar harbiy qismning o'tgan davr mobaynidagi faoliyati davomida bosib o'tgan sharaflari yo'lini, jangovar tayyorgarlik sohasidagi yutuqlarini va Vatan tinchligi hamda xavfsizligini ta'minlashda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning fidokorona mehnatini yuksak baholadi. Ta'kidlanganidek, yillar davomida harbiy qismning moddiy-texnik bazasi zamon talablari asosida mustahkamlanib, shaxsiy tarkibning jangovar, kasbiy hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini yanada yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugun ushbu harbiy qism

nafaqat jangovar vazifalarni sidqidildan ado etayotgan, balki yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va sadoqat ruhida tarbiyalaydigan muhim maskan sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Tadbir davomida xizmat vazifalarini namunali ado etayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar faxriy yorliq, esdalik sovg'alar hamda navbatdagi harbiy unvonlar bilan taqdirlandi.

Bayramona tadbir harbiy orkestr va taniqli san'atkorlar ishtirokidagi vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar, bilan davom etdi. Bu chiqishlar ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat ulashib, harbiy qismning sharaflari tarixi va an'alariga bo'lgan hurmatni yanada mustahkamladi.

Hamkorlik

Bugungi kunda zamonaviy armiya nafaqat jismoniy jihatdan baquvvat, balki intellektual salohiyati yuksak, ilg'or texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan kadrlarga tayanadi. Ayniqsa, robototexnika va sun'iy intellekt kabi yo'nalishlar harbiy sohada tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Janubiy operativ qo'mondonlik fakulteti hamda Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumini doirasida harbiy



ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR SABOG'I

xizmatchilar uchun robototexnika va sun'iy intellekt yo'nalishlari bo'yicha mahorat mashg'ulotlari izchil tashkil etilmoqda.

Mashg'ulotlarni universitetning malakali professor-o'qituvchilari olib bormoqda. Ular muntazam ravishda fakultet va harbiy qismlarga tashrif

buyurib, nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy darslar o'tkazmoqda.

Darslar jarayonida ishtirokchilar robototexnika tizimlari, sun'iy intellekt texnologiyalari, dasturlash asoslari hamda zamonaviy innovatsion yechimlar bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmoqda.

Bu esa ularning xizmat faoliyatida yangi yondashuvlarni qo'llash, murakkab vazifalarni zamonaviy usullarda hal etish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Ushbu hamkorlik harbiy xizmatchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish salohiyatini oshirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Armiya va yoshlar

O'g'lonlar "JASORAT MAKTABI"DA

Vatan himoyasiga tayyor, ma'naviy barkamol va jismonan baquvvat yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ana shu ezgu maqsad yo'lida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda tashkil etilgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur yig'inda viloyatning turli hududlaridan saralab olingan 100 nafar yosh ishtirok etmoqda. O'n kun davom etadigan mashg'ulotlar dasturi yoshlarning harbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashga qaratilgan. Yig'in davomida ishtirokchilar saf tayyorgarligi, taktik mashg'ulotlar, jismoniy tayyorgarlik hamda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi darslarda faol qatnashib, harbiy hayot sirlari bilan yaqindan tanishmoqda.

Yig'in doirasida ishtirokchilar Surxondaryo viloyati hokimi hamda viloyatdagi kuch tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashdi. Dastlab mehmonlar harbiy qismda xizmat qilayotgan harbiylar uchun yaratilgan xizmat va maishiy sharoitlar, o'quv jarayonlari hamda mavjud infratuzilma bilan tanishib, amalga oshirilayotgan ishlarga ijobiy baho berdi.

Shundan so'ng harbiy qism madaniyat markazida "Rahbar va yoshlar" mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi. Samimiy ruhda o'tgan muloqot davomida viloyat hokimi mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularning bilim

olishi, zamonaviy kasb-hunar egallashi hamda Vatanga sadoqat ruhida kamol topishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida so'z yuritdi.

Uchrashuv jarayonida yoshlar tomonidan bildirilgan murojaat va takliflar diqqat bilan tinglandi. Ko'tarilgan masalalarni ijobiy hal etish yuzasidan viloyatdagi kuch tuzilmalari rahbarlariga aniq vazifalar belgilab berildi. Har bir murojaatni amaliy hal etish, yoshlarga yaqindan ko'maklashish bo'yicha mas'ullarga tegishli topshiriqlar yuklatildi.

Muloqot yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob berildi. Yoshlarning tashabbus va intilishlari qo'llab-quvvatlanishi, ularning kelajakda Vatan himoyasida munosib xizmat qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi ta'kidlandi.

Bunday o'quv yig'inlari yoshlarning nafaqat jismoniy va harbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, balki ularda Vatanga muhabbat, mas'uliyat hamda fidoyilik tuyg'ularini yanada kuchaytiradi.





Ayni paytda markazda yoshlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bois ham yoshlarning jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilyapti. Belgilangan rejaga muvofiq, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi hamda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ'iboti yo'nalishida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

– Xususan, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatani, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz!” shiori ostida o‘tkazilayotgan tadbirlar ham bu borada olib borilayotgan ishlar jumlasidandir, – deydi markaz direktori Sobirxon Samatov. – Albatta, bunday tadbirlar yoshlarimiz uchun Vatanga muhabbat, milliy g‘urur hamda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda markazda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda yoshlar o'quvini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, yoshlar uchun sport to'garaklari faoliyatini yaxshilash hamda malakali haydovchilar tayyorlash maqsadida o'quv avtomobillari parkini yangilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan yaqinda markazda "Havo muntig'idan o'q otish" to'garagi uchun yangi tir foydalanishga topshirildi. Xuddi shu kuni tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi o'quvchilari ishtirokida pnevmatik quroldan o'q otish sporti bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Albatta, yuqori saviyada tashkil etilgan musobaqa ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Ayni paytda tashkilotda "B", "BC", "C" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Buning uchun tinglovchilarga barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, ularning amaliy boshqarishni mukammal o'rganishlari uchun so'nggi zamonaviy rusumdagi yengil va yuk avtomobillari olib kelindi. Yaqinda yangi xarid qilingan "Onix" va "Kia" o'quv avtomobillarining kalitlari "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi rahbariyati tomonidan tashkilotning amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalarga tantanali ravishda topshirildi.

Akbar ALLAMURODOV

Furastdan foydalanib, “Vatanparvar” tashkiloti Nurobod tumani O‘STM NTM jamoasi barcha yoshlarni haydovchilikning “B”, “BC” toifalariga o‘qishga hamda “C” toifasiga qayta tayyorlash kurslariga taklif etadi.



**Mashg‘ulotlar
malakali mutaxassislar
tomonidan olib borilishi
kafolatlangan.**

**Shuningdek,
sportning texnik va
amaliy turlari bilan
shug‘ullanish imkoniyati
ham mavjud.**



**Nurobod shaharchasi,
Guliston ko'chasi, 1-“A” uy.**



**97 030-40-16;
94 281-67-76.**

Xalqaro hamkorlik

“Vatanparvar” tashkilotining kasbiy ta’lim tizimida xalqaro standartlar va ilg’or amaliyotlarni joriy efish, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish, xalqaro tan olinadigan malaka baholash hamda sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish bo’yicha muhim qadam qo’yildi.



MEMORANDUM IMZOLANDI

“Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, Latviya Respublikasining “Certification Center” boshqaruv raisi Aynars Saulitis hamda “Toshkent xalqaro sertifikatlash akademiyasi” direktori Abduqahhor Yusupov boshchiligidagi delegatsiya ishtirokida memorandum imzolandi.

Endilikda ushbu kelishuv bitiruvchilarga berilayotgan kasbiy sertifikatlarning xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga hamda tizimdagi o’quv jarayonlari samaradorligini sifat jihatidan tubdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

MUHMIM QADAM

O’zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko’maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti hamda “ROODELL” MChJ o’rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Kelishuv doirasida kompaniya buyurtmalariga asosan, “Vatanparvar” tashkiloti o’quv muassasalarida O’zbekiston fuqarolarini avtoelektrik, avtochilangar va boshqa shu kabi kasblarga o’qitish, tashkilotning moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda “KIA” rusumidagi avtomobillarga texnik xizmat ko’rsatish markazlarini barpo etish, shuningdek mahalliy darajada yangi ishlab chiqarishni, xususan “KIA”



avtomobillari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi sexlarni tashkil qilish ko’zda tutilgan. Ushbu hamkorlik mamlakatimizda avtomobilsozlik sohasida yosh va malakali kadrlar tayyorlash hamda texnik xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish yo’lidagi muhim qadamdir.



O’zbekiston mudofaasiga ko’maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Ustuvor vazifa

Bugungi kunda davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, manfaatlar to’qnashuvini barvaqt aniqlash va oldini olish korrupsiyaning kelib chiqish xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Manfaatlar to’qnashuvi – bu mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlarining xizmat vazifalarini xolis va qonuniy bajarishiga ta’sir ko’rsatishi yoki shunday ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan holat. Bunday vaziyatlarda qabul qilinayotgan qarorlar jamoat manfaatidan ko’ra, shaxsiy manfaatga xizmat qilishi ehtimoli paydo bo’ladi.

Manfaatlar to’qnashuvi har doim ham korrupsiya degani emas. Biroq u korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo’lgan muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, davlat xaridlarida tender komissiyasi a’zosining tanlovda ishtirok

MANFAATLAR TO’QNASHUVI — korrupsiyaning oldini olishda muhim omil

etayotgan korxona bilan qarindoshlik yoki moliyaviy aloqadorligi mavjud bo’lsa, bu manfaatlar to’qnashuvi holati hisoblanadi. Agar bu holat yashirilsa va qaror qabul qilishga ta’sir qilsa, korrupsiyaviy huquqbuzarlik yuzaga kelishi mumkin.

Manfaatlar to’qnashuvining oldini olish uchun davlat organlari va tashkilotlarda aniq ichki tartib-qoidalar joriy etilishi, xodimlar tomonidan manfaatlar to’qnashuvi holatlari haqida o’z vaqtida xabar berilishi hamda bunday vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonidan chetlashtirish mexanizmlari amal qilishi lozim. Shuningdek, davlat xizmatchilarida halollik, xolislik va kasbiy etika tamoyillarini mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning nazorati

ham ochiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shaffof boshqaruv va hisobdorlik tizimi manfaatlar to’qnashuvini kamaytirish hamda davlat boshqaruviga bo’lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, manfaatlar to’qnashuvini aniqlash va samarali boshqarish korrupsiyaga qarshi kurashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir davlat xizmatchisi o’z xizmat vazifalarini bajarishda shaxsiy manfaatlarini emas, balki jamiyat va davlat manfaatlarini ustuvor qo’yishi zarur. Ana shundagina adolatli, ochiq va samarali davlat boshqaruvini ta’minlash mumkin bo’ladi.

Mayor Azamat AMANOV,
Toshkent shahri FVBB SHXB katta inspektori

Yong’in xavfsizligi

Hayotimizni maishiy texnikalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Deyarli barcha xizmat xonalarida va yashash xonadonlarida elektr choynak, elektroto’lqinli pech, changyutgich, sovitkich va shunga o’xshash boshqa texnikalarni ko’rish mumkin. Ma’lumki, har bir maishiy texnika har xil qiymatda tok iste’mol qiladi.

Maishiy texnikalardan TO’G’RI FOYDALANING!

Ushbu maishiy texnikalarning iste’mol qilayotgan tok kuchi xonadondan o’tgan elektr simlarning kesimi yuzasiga mos kelishi hamda qisqa tutashuv va ortiqcha yuklanishdan himoyalovchi avtomatik o’chirgichlarda ko’rsatilgan maksimal tok kuchidan oshmasligi kerak. Elektr simlarda ortiqcha yuklanish vujudga kelib, ularning qizishi izolyatsiyaning erib yonishiga sabab bo’ladi.

Hozirgi ishlab chiqarilayotgan maishiy texnikalar katta tok iste’mol qiladigan texnikalardir. Agar ulardan bir vaqtning o’zida baravariga foydalanilsa, maishiy texnikalarning iste’mol qilayotgan tok kuchi alyuminiy

simlarga ruxsat berilgan maksimal tok kuchidan ortib ketadi. Ushbu holat ortiqcha yuklanishni keltirib chiqaradi.

Agar xonadonga qisqa tutashuv va ortiqcha yuklanishdan himoyalovchi sertifikatlangan avtomatik o’chirgichlar belgilangan qoida talablari asosida o’rnatilgan bo’lsa, ular o’z funksiyasini to’g’ri bajaradi. Aksincha bo’lsa, ortiqcha yuklanishni sezmaydi va himoya qilmaydi. Muhofazalovchi avtomatlar foydalanilayotgan maishiy texnikalarni emas, balki xonadondan o’tgan elektr simlardagi qisqa tutashuv va ortiqcha yuklanishdan himoyalaydi.

Ortiqcha yuklanish sodir bo’lganda elektr simlar avvaliga qiziydi, so’ng uning himoya qobig’i erishni boshlaydi. Himoya qobig’i erishi natijasida qisqa tutashuv sodir bo’ladi. U o’zidan kuchli issiqlik energiyasini ajratadi. Agar elektr simlari yog’och konstruksiyalar hamda turli xil plastika qoplamalar orasidan yoki ustidan o’tgan bo’lsa, ushbu materiallar yonish xususiyatiga ega bo’lgani bois yong’in kelib chiqishi mumkin.

Shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, elektr energiyaning afzallik tomonlari bo’lgani kabi kamchilik tomonlari ham mavjud. Bundan tashqari, nosoz va qo’lbola

elektr qurilmalaridan foydalanish, ularni nazoratsiz qoldirish, vaqtinchalik tortilgan elektr simlaridan foydalanish, himoya apparatlari o’rniga har xil yasama yoki vaqtinchalik simlarni qo’llash oqibatida ko’plab yong’inlar kelib chiqmoqda.

Elektr qurilmalarida avariya, ya’ni qisqa tutashuv, ortiqcha yuklanish holatlariga yo’l qo’ymaslik uchun quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

– elektr qurilmalarini me’yoriy hujjatlariga asosan, mavjud xonalarga hududlarga mos qilib to’g’ri tanlash va ularni o’rnatish;
– elektr qurilmalarini ularning pasportidagi yoki

ustki qismida yozilgan zavod ko’rsatkichlariga qarab ishlatish;

– bir tarmoqqa mo’ljallangandan ko’p katta quvvatli iste’molchilarni ulamaslik;
– nosoz va qo’lbola elektr qurilmalaridan, isitgichlardan, vaqtinchalik elektr simlardan foydalanmaslik;
– bilar-bilmas elektr qurilmalarni ta’mirlamaslik;
– elektr qurilmalarini uzoq muddatga nazoratsiz qoldirmaslik lozim.

Mayor Shuhrat ARAKULOV,
Toshkent garnizoni yong’in nazorati inspeksiyasi boshlig’i



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

MUHIM SANAGA BAG'ISHLANDI

Shu kunlarda davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan joylarda “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari hamda uchrashuvlar o‘tkazilmoqda.

hissini, vatanparvarlik
tuyg'usini shakllantiradi.
Bu esa, o'z navbatida,
yoshlarning kamolotida alohida
o'ringa ega.

Ayni kunlarda markazda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham muayyan natijalarga

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Kattaqo'rg'on tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida o'tkazilgan tadbir ham ushbu muhim sanaga bag'ishlandi.

Tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda ma'naviyat targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda ko'plab yoshlar ham faol ishtirok etdi. Albatta, muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbidagi ona Vatanga sadoqat va muhabbat



erishilmoqda. Birgina, joriy yilning o'tgan oylari mobaynida "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash borasida ham yaxshi samaradorlikka erishildi. "Havo multig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar turli

sport musobaqalarida ishtirok etib,
yuqori o'rinlarni qo'lga kiritmoqda.

Bu kabi muvaffaqiyatlarda tashkilotimiz jamoasining zamon talablariga mos faoliyati alohida o'rin tutadi.

**Sobirjon SAIDOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Kattaqo‘rg‘on tumani O‘STM
NTM direktori**

Reklama huquqi asosida

TINGLOVCHILAR UCHUN QULAYLIK

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi asta-sekin o‘z natijalarini bermoqda. Endilikda har sohada o‘zgarishlar mevasi ko‘rinayotgani, tabiiyki, har birimizni quvontirib, yanada unumli mehnat qilishga, izlanishga undamoqda.

“JIZZAKH AUTO SCHOOL” avtomobil maktabi barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning “A”, “B”, “BC”, “C”, “CE” hamda “D” toifalariga o‘qishga taklif etadi. Mashg‘ulotlar tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Jizzax shahrida faoliyat ko'rsatayotgan "JIZZAKH AUTO SCHOOL" avtomaktab mas'uliyati cheklangan jamiyatini ham tom ma'noda islohotlar mevasi deyishimiz mumkin. Zotan, mamlakatimizda muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan erkin mehnat, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur avtomatlabni tashkil etish natijasida o'ttiz nafar jizzaxlik doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlandi. Muhimi, haydovchilik sir-asrorlarini o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Avtomaktabda tinglovchilarga zarur qulayliklar yaratilib, zamonaviy talablarni o'zida mujassam etgan sinf xonalar, avtodrom hamda turli rusumdagi o'quv avtomobillari taqdim qilingan.

Bugungi kunda tinglovchilar zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan ushbu o'quv muassasada "A", "B", "BC", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlash kurslarida tahsil olishlari va qayta tayyorlash kurslarida o'z bilim va mahoratlarini oshirishlari mumkin.

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

 **BIZ BILAN BOG‘LANING:**
 **Jizzax shahri, “O‘ratepalik”
MFY, I. Ahmedov ko‘chasi.**
 **90 229-05-01;
93 300-15-83.**

Millat fidoyilari

Mardlar siymosi

MANGULIKKA MUSHARRAF

Mustaqillik! Sen millatga jon, Vatanga shon berguvchi shunday ne'matsanki, seni asrashga, poyingga jon berishga botir-u bahodirlar shay turadi. Mustaqillik! Sening bahri ummoningda unib-ulg'aygan farzandlar qaddi baland, ko'ksi balandki, ularga olam ahli havas ila boqadi, ular erk va ozodlikni umridan-da aziz ko'radi. Vatan hurligi uchun jonini nisor etmoqni baxt deb biladi.

Ming shukrki, mustaqilligimiz 35 yoshga qadam qo'ymoqda. Uning bardavomligi, beshikast-u beziyon qad rostlashi yo'lida ne-ne bahodirlar, mard-u maydonlar fidoyilik ko'rsatmadi deysiz. Bularning safida tinchligimizga, hurligimizga chang solmoqchi bo'lgan mal'unlar sabab umri erta zaval topgan o'g'lonlarimiz ham yo'q emas. Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi harbiy harakatlarda mardlarcha halok bo'lgan Vatan himoyachilari bunga misol bo'la oladi.

Bugun ularning aziz nomi Vatan tarixiga, millat ko'ksiga manguликka muhrlangan. Shunday azamatlardan biri – “Jasorat” medali sohibi, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Farhod Abdullayev.

SURXONNING ALPOMISH O'G'LONI

Alpomishlar yurti bo'lmish Termiz shahrida voyaga yetgan yigit endigina to'qqiz yoshni qarshilayotgan mustaqilligimizni asrash yo'lida jon taslim etganida 22 yoshda edi. Mana, shunga ham yigirma olti yil bo'ldi. Biz, bejiz bu sanalarni yodga olmadik. Chunki Farhod kabi dovyurak, fidoyi o'g'lonlarimiz sabab ozodlik kaftida olamga bo'ylayotgan Vatanimiz bugun turonzaminning istiqboli nurli davlatlari qatorida qad kerib turibdi. Bu e'tirofda shubhasiz, Farhodjonning ham ulushi tengsiz. Eng asosiysi, uning aziz nomi, xotirasi qalblar to'rida yashamoqda. U kamolga yetgan oila, u ulg'aygan mahalla, u tahsil olgan maktab, u xizmat qilgan harbiy qism, bir so'z bilan aytganda mard o'g'lonning izi qolgan har bir joyda unutilmas nomi, barhayot xotirasi bor.

Farzandning kelajagi oiladan boshlanadi. O'g'il-qizlarning sog'lom unib-o'sishidan tortib, barkamol ulg'ayishiga qadar ota-ona fidoyilik ko'rsatadi, zahmat chekadi, istiqboliga nurli orzular bog'laydi. Qahramon o'g'lonimizning ota-onasi Shoazim aka va Bibigul opa ham ezgu orzular ila dunyoga keltirgan o'g'illarini dostonlardagi Farhod yanglig' zabardast, tog'ni talqon etishga qodir yigit bo'lsin, deya ismini Farhod deb atashgan bo'lsa ajabmas. Shunday bo'ldi ham. Yurti asrash yo'lida jasorat ko'rsatib, jon taslim qilgan yovqur farzandlarining nomi bugun mustaqilligimiz bardavomligiga umrini nisor etgan jasur o'g'lonlar qatorida tarix zarvaraqalaridan joy olgan.

QALBGA YAQIN XOTIRALAR

Men Farhodjon ulg'aygan xonadonda avval ham bo'lganman. O'zbekona xonadon, kamtar, samimiy insonlar. Bu oilada uch farzand voyaga yetgan, ikki o'g'il va bir qiz. To'ng'ich o'g'illaridan ayrilib, bag'ri ezilgan ota-onaning quchog'i bugun kichik o'g'illari To'xtamurod va qizlari Umidaxonning o'g'il-qizlari bilan to'kin. Hayotdan bevaqt ko'z yumgan Farhodjon sabab uni xotirlash uchun Shoazim aka va Bibigul opalar ziyoratiga yor-u birodarlari tez-tez tashrif buyurib, xonadon mehmoni bo'lishadi.

O'rtadagi suhbat har gal Farhodjon bilan bog'liq yorqin xotiralarga ulanadi.

– Farhodjon o'g'limni esladim deguncha, uning bolalik chog'lari yodimga tushaveradi, – deydi qahramon yigitning volidayi muhtaramasi xotiralarga berilib. – U bolalik chog'ida ham juda zukko bo'lgan. Bir gal “Xonjizza” dam olish maskaniga borganimizda, bolalar o'rtasida rasm chizish musobaqasi bo'ldi. Farhodjon o'shanda to'qqiz yoshlarda edi. U ham bolalar qatorida rasm chizib, 1-o'rinni oldi. O'shanda harbiy raketa chizib, ustidan chiziqlar tortib qo'ygandi. Ya'ni urush bo'lmasligini istagandi. Qarangki, yillar o'tib yurt tinchligini asrashga bel bog'lagan harbiy xizmatchi bo'ldi. U oliy ma'lumotli bo'lishni juda istardi. Universitetga hujjat topshirib kira olmagach, uning qoshidagi biznes maktabida bir yil tahsil oldi. O'g'lim kitobni sevardi. Ishonasizmi, harbiy xizmatchi bo'lishni maqsad qilganida Yurtboshimizning kitoblarini kechasi bilan o'qib chiqardi. Keyin sportga bo'lgan qiziqishi yuqori edi. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni kanda qilmadisi.

Bolaligidan ulg'aygunga qadar, Farhodjonning orqasidan biror marotaba nojo'ya so'z eshitmadik, eldan, ustozlaridan, komandirlaridan faqat rahmat oldik. Ta'bi nozik, og'ir, vazmin edi, u. O'quvchilik davrlarida ham kiyimlariga juda e'tiborli bo'lgan. Harbiy libosini esa juda avaylardi. Bir gal uyga kelganida yoqasiga qo'yilgan oq matoni qarshilik qilishiga qaramasdan tikib berdim. Qarangki, xizmat joyiga borgan zahoti yoqasini o'zi tikmaganini o'rtoqlari darhol sezishibdi. Qo'lidan igna tushmaydigan mendek ayol ham, o'g'limchalik tika olmabman. Aytmoqchimanki, Farhodjon har bir ishga boshqacha yondashardi, chunki o'zi boshqacha bola edi. Farzand dog'i og'ir, ammo bolam el-yurtimizni asrash yo'lida jon berdi. Undan ayrilganimizga 26 yil bo'ldi, mana shu yillar davomida bizdan nafaqat uning do'stlari, balki harbiy qismlardan, o'quv dargohlari, shahar mudofaa ishlari bo'limidan kelib xabar olib turishadi. **2018-yilda Prezidentimiz qarori bilan Termiz shahridagi Farhodjon o'qigan 12-umumta'lim maktabiga byusti o'rnatildi, xotira burchagi qilindi.** O'qituvchi va o'quvchilar tez-tez xonadonimiz mehmoni bo'lishadi. Davlatimiz tomonidan ham e'tibordamiz. Sihatgohlarda dam olamiz, gospitalda davanlab turamiz. Faqat bitta armonim, sevgan qizi bor edi, to'yiga atalgan, kelinimga deb olingan sarpolar sandiqda qoldi...

Goho o'ksik jilmayib, goho ko'zlari yoshga to'lib, xotiralarini so'zlayotgan onaning dil armonlarini tushunsa bo'ladi. Axir farzand onaning vujudidan yaraladi.



Suhbatlashish asnosida, xonadondagi mehmonxonaning to'ridan joy olgan xotira burchagi bilan tanishdik. Farhodjonning harbiy liboslari, bolalig-u yigitlik davridagi rasmlari, o'qigan kitoblari, davlat mukofoti va maqto'v yorliqlari. Ya'ni “Jasorat” medali, Qurolli Kuchlarimizning 15 yilligi, 20 yilligi va 30 yilligi ko'krak nishonlari. Bularning barchasi ushbu oilaga tashrif buyurgan mehmonlarga qahramon yigit haqida yorqin xotiralar so'zlaydi. **Shu asnoda, Farhodjonning quroldosh do'sti serjant Oqil Xolmurodov xotiralariga quloq tutamiz:**

– Men xizmat faoliyatim davomida ko'plab do'stlar orttirdim. Ular orasida Farhodning alohida o'rni bor edi. U tirishqoqligi, dunyoqarashining kengligi bilan hammamizdan ajralib turardi. Farhodning harbiy mashg'ulotlardagi bilimdonligi, chapdastligi, tez va to'g'ri qaror qabul qilishi komandirlarimiz tomonidan doim yuqori baholanardi. 2000-yilning 18-avgusti aslo xotiramdan ko'tarilmaydi. Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida xalqaro terrorchilarni batamom yo'q qilish maqsadida amalga oshirilayotgan qidiruv va tozalash operatsiyasi davomida Farhod o'zining professional harbiy xizmatchi ekanini ko'rsatdi. U jang maydonida shunday harakat qildiki, o'q otish pozitsiyasini tez-tez o'zgartirar, ya'ni bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini hech kim payqamasdi. Shunday harakatlardan birida Farhod bosqinchi gazandalar bilan yuzma-yuz kelib, ularga qaqshatqich zarba berdi. Afsuski, o'zi ham jangda og'ir yaralandi va jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi. Uning xotirasi hamisha biz bilan. Uning jasoratini avlodlar unutmazligiga, xotirasi ila barhayot ekaniga ishonaman.

Farhodjon Abdullayev ulg'aygan xonadondan qaytar ekanimiz, Bibigul opaning bir so'zi qulog'im ostidan nari ketmaydi, ya'ni **“Farhodjon bilan so'nggi nafasida birga bo'lgan o'rtoqlarini ko'rgim kelaveradi. Ularni ko'rsam, bolamga bo'lgan sog'inchim, ayriliq dardi oz bo'lsa-da yengillashadi, ko'nglim taskin topadi deb o'ylayman-da”.**

Ha, bu mehmondo'st xonadon Farhodjonning do'stlari va safdoshlariga hamisha intiq, ota-onaning bag'ri yo'qlovchilar uchun hamisha ochiq. Negaki, bu aziz go'shada qahramon yigitning o'chmas xotirasi yashaydi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6162

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 947 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@mail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya